

Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

# BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH METODIKASI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA  
MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna**

**BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH  
METODIKASI**

**DARSLIK**

**60110200 - Maktabgacha ta‘lim bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari  
uchun**

**TOSHKENT  
“METHODIST NASHRIYOTI”  
2024**

UDK:370.13  
KBK: 74.0  
X30

**Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna**  
**Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. Darslik. - Toshkent:**  
**"METHODIST NASHRIYOTI", 2024. - 324 bet.**

Darslik "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi" fani dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, unda "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi" fanining maqsad va vazifalari, maktabgacha ta'lim tashkilotida "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, bolalarni mehnat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish orqali maktabga tayyorlash, "Ilm yo'li" variativ dasturi asosida bolani maktabga tayyorlash, qisqa muddatli guruhlarda bolalarni maktabga tayyorlash, nutq, o'qish, yozish malakalarini shakllantirishning maktabga tayyorlashdagi ahamiyati to'g'risida ham so'z yuritiladi.

Darslik oliy ta'lim muassasalarining 60110200 - Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrantlar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, umuman shu sohaga qiziqqan keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

Учебник подготовлен на основе программы предмета «Методика подготовки детей к школе», в которой освещаются цели и задачи предмета «Методика подготовки детей к школе», такие вопросы, как «Государственные требования к развитию детей младшего и дошкольного возраста» в организации дошкольного образования. Также подчеркнута важность подготовки детей к школе путем формирования трудовых умений и навыков, подготовки детей к школе по вариантной программе «Илм йули», подготовки детей к школе в кратковременных группах, формирования навыков речи, чтения и письма в школе.

Учебниками могут пользоваться студенты бакалавриата направления образования 60110200 - Дошкольное образование, а также магистранты, преподаватели, научные работники, широкая аудитория читателей, интересующихся этой сферой

The textbook was prepared on the basis of the program of the subject "Methods of preparing children for school", which covers the goals and objectives of the subject "Methods of preparing children for school", issues such as "State requirements for the development of children of primary and preschool age" in the organization of preschool education. The importance of preparing children for school by developing labor skills and abilities, preparing children for school according to the "Ilm Yuli" variant program, preparing children for school in short-term groups, developing speech, reading and writing skills at school was also emphasized.

Textbooks can be used by undergraduate students in the field of education 60110200 - Preschool education, as well as undergraduates, teachers, researchers, a wide audience of readers interested in this area.

**Taqrizchilar:**

**M.X.Tadjieva** - Toshkent pedagogika kolledji direktori,  
p.f.n.dotsent

**Sh.A.Sadikova** - Maktabgacha ta'lim metodikasi  
kafedrası p.f.n, professor

ISBN 978-9910-03-298-1

© Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, 2024.  
© "METHODIST NASHRIYOTI", 2024.


## KIRISH

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o'qitish shakllarida foydalaniladigan o'qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir goyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar vatani bo'lib kelgan O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o'zgacha ma'no kasb etishi muqarrar. O'qituvchi - O'zbekistonning porloq kelajagini barpo etuvchi, dunyoga mashxur mutafakkir va olimlarning davomchisi bo'lgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxsdir. Shunday ekan, o'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi, uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasidagi obro'- e'tibori hozirgi zamon talablariga mos bo'lishi shart.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlardan asosiy maqsad har bir yoshni mustaqil fikrlaydigan, jamiyatda faollik ko'rsatadigan, qiyinchiliklarni qo'rqmasdan engib o'ta oladigan shaxs sifatida kamolga etkazish hamda, ularni yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash hisoblanadi. Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak" - deya ta'kidladilar. Shuningdek, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga etkazish, ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, professor-o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish masalalariga alohida to'xtalib o'tdilar.

O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish ta'lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta'minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta'lim-tarbiyaning mohiyatiyu mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maktabgacha tarbiya tizimida xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Darslikda bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi borasida o'tiladigan mashg'ulotlarning namunaviy ishlanmalari ham o'rnatilgan. Talabalarning tanlagan



kasblariga qiziqishlarini uyg'otish, olgan bilimlarini rivojlantirish, педагогик ва методик faoliyat orqali olgan ko'nikma va malakalarini shakllantirishga ham keng ahamiyat berilgan.

Darslikda mustaqil tayyorlanish uchun nazorat savollari, test topshiriqlari, fanning asosiy tushunchalari glossariy va adabiyotlar ro'yxati keltirilgan. "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi" darsligi 60110200 - Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturi asosida tayyorlangan.

Darslikdan oliy ta'lim muassasalari professional ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, magistrLAR, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar foydalanishlari mumkin.



### 1-§. “BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH METODIKASI” FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Tayanch tushunchalar:** *moslashish, tizimlilik, differentsiatsiya, motivatsiya, inklyuziv, diagnostika.*

#### 1.1. “Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi” fan sifatida.

Jamiyatda tub islohotlarning amalga oshirilishi bevosita maktabgacha ta’lim tizimiga ham ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda. Ta’limda innovatsion metodlardan foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni maktabgacha ta’lim tizimida qo’llash, boshqaruvning yangi usullarini joriy etish kabi jarayonlar jadal rivojlanmoqda. Maktabgacha ta’lim muassasalariga borgan bolalarning maktabga tayyorligi va ularning maktabga moslashishi ruhiy tomondan yengilroq bo’lib, o’quv materiallarni o’zlashtirishda ham qiyinchilikka duch kelmaydilar. Uy sharoitida tarbiyalanib maktabga chiqqan bolalar esa o’quv materialini o’zlashtirishda ancha qiynalishadi. Bu maktabdagi sotsium (jamoaga) moslashishning past darajasi, ruhiy-fiziologik «sarflanish»ning yuqori darajasi, shuningdek, sog’lig’ining yomonlashishi bilan tavsiflanadi.

Bu holatlarni inobatga olib, davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida va uning tasarrufida tashkil qilinadigan qisqa muddatli guruhlarda va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarida, qo’shimcha turdagi muassasalarda, oiladagi ta’lim dasturlarida maktabga tayyorlashning asosiy sharti sifatida bolalarning maktabga borishi (5-6 yosh), ularning ruhiy-fiziologik salohiyatini rivojlantirishga doir maqsadli variativ dasturlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Ota-onalar farzandlarini o’qitish uchun ta’lim muassasasini tanlashda maktabning ijtimoiy mavqei, ta’limga yo’naltirilganligi va har bir bolaga nisbatan yakka tartibda yondashish, shuningdek, o’qitish uchun to’lovning yo’qligi hal qiluvchi omillar hisoblanmokda.



Ota-onalar farzandlariga mutaxassis sifatida katta tajribaga ega bo’lgan, har bir bolaning qalbiga yo’l topa oladigan, bolalarga mehribon o’qituvchilar bilim berishini xohlaydilar. Bolalarni maktab

ta'limiga tayyorlashda nafaqat ota-ona, balki davlat va nodavlat jamoa tashkilotlari bilan hamkorlik ishlarini olib borish yanada yaxshi natija beradi:

✓ 5-6 yoshdagi bolalarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va jismoniy, kognitiv, ijtimoiy emotsional sohalar mexanizmlarini takomillashtirish;

✓ ota-onalar va bolalarning turli ehtiyojga asoslangan ta'lim talablarini qondirish;

✓ tizimlilik – barcha maktabgacha ta'lim tizimi ta'lim oluvchilari uchun yagona ta'lim sifatini ta'minlash;

✓ ushbu talablarga asosan, maktabgacha ta'lim tizimida ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarining turli-tuman bo'lishiga hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni to'liq qamrab olish, maktabgacha ta'lim xizmatlari tizimini kengaytirishga erishish;

✓ differentsiyalangan (har bir bolaga alohida) yondashuv asosida bolalarning ruhiy-fiziologik salohiyatini ochib berish;

✓ kuni uzaytirilgan guruhlarda 1-2-sinf bolalarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning ruhiy-fiziologik ta'minotini ishlab chiqish;

✓ xorijiy davlatlarning didaktik adabiyotlarni tahlil qilish;

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlaridan foydalanish samarali natija beradi:

➤ maslahat-diaagnostika;

➤ rivojlantiruvchi;

➤ tuzatishlar kirituvchi;

➤ tashkiliy-uslubiy.

Faoliyatning maslahat-diaagnostika yo'nalishi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

➤ katta maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish xususiyatlari, uning maktabda o'qishga tayyorligini aniqlash;

➤ shaxsiy qobiliyatlari, qiziqishlarini aniqlash;

➤ bolaning sog'lig'i va rivojlanishidagi mavjud bo'zilishlar diagnostikasini o'tkazish va uni psixologik-pedagogik ta'riflash;

➤ bola rivojlanishining ijtimoiy vaziyat xususiyatlarini tahlil qilish;

➤ maktabga tayyorlash jarayonida bolaning rivojlanishini monitoring qilish.

Maktabgacha ta'lim tizimining maqsadi – har bir bolaning sifatli va ommabop (ochiq) ta'lim olish huquqini ta'minlash. Bu tizimda ta'lim oluvchilar uchun har hil rejim, ya'ni ota-onalar talabidan kelib chiqqan holda, vaqtni belgilash, bola rivojlanishini inobatga olish, iqtidor va yo'nalishlarni hisobga olish, imkoniyati cheklangan bolalar, maxsus ta'lim talablarini inobatga olish va h.k. asosiy mezon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim – maktabgacha ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining muvofiqlashgan faoliyati. Bu jarayon ta'lim

mazmunini tanlashda (ta'lim standartlari va talablari doirasida), ta'lim vositalari, usullari va muloqot yo'llarini, umuman olganda, maktabgacha ta'lim mazmuni va jarayonini tanlashda namoyon bo'ladi.

Bolani maktab ta'limiga tayyorlash – alohida e'tiborni talab etadigan o'ta muhim jarayondir. Bu bosqichda maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Maktabga tayyorgarlikning asosiy maqsadi bolani yangi sharoitlarga moslashishni ta'minlashdir. Bola o'zini ishonishi va yangi bilimlar olishga tayyor bo'lishi muhim.



Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. I.Jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish. Maktab hayoti faol va chidamlilikni talab qiladi. Muntazam jismoniy nagruzkalar bolaning tana qurilishini mustahkamlashga xizmat qiladi va o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida diqatini jamlashga yordam beradi.

2. Intellektual qobiliyatni rivojlantirish. Bolaning fikrini, xotirasini, e'tiborini va mantiqiy fikrini rivojlantirish muhim. Turli fandlar bo'yicha mashg'ulotlar uning axloqiy qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi va o'quv jarayoniga tayyorlanadi.

3. Ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirish. Maktabda bolaga boshqa bolalar, o'qituvchilar bilan aloqaga kirish, jamoaviy tadbirlarda ishtirok etish zarur bo'ladi. Shu bois bolaga muloqotni, emotsional intilishni va mustaqillikni o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Mustaqillik ko'nikmasini shakllantirish. Bolada o'z ish kunini tashkil etishni, vazifalarni katta shaxslar nazoratsiz bajarishni va ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni mustaqil hal etishni o'rganishi kerak.

5. Maktab o'quv jarayonining asoslari bilan tanishish. Bolaga maktab darsxonasining asosiy talablari, sinfdagi harakat qoidalari, mashg'ulotlar jadvali va boshqalar bilan tanishish lozim.

Maktabga tayyorgarlikni oldindan boshlash va uni bosqichma-bosqich va tizimli amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning o'miga o'yinlar va rivojlantirish vazifalaridan foydalanish yaxshi.

## **1.2. Maktabgacha ta'limning maqsadi**

Maktabgacha ta'limning maqsadi: bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga kuyiladigan Davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabga o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish.

Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga kuyilgan maksad va vazifalarning bajarilishiga erishish «Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash» tayanch dasturi asosida amalga oshiriladi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun xamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da mamlakatning ijtimoiy-iktisodiy tarakkiyotini ta'limning asosiy omili bo'lgan kadrlarni tayyorlash borasidagi eng zarur tadbirlar tizimi belgilab berilgan. Sog'lom avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustivor yo'nalishidir.

Davlat talablari asosida tuzilgan «Uchinchi mingyillikning bolasi» tayanch dasturiga asosan maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari, tarbiyachilari, xamda, o'zlari uchun turli soxalar buyicha dasturlar, qo'llanmalar, tavsiyalar, kizikarli kitoblar, aklan va jismonan rivojlantirishga yordam beradigan turli-tuman o'yinlar va ta'lim tarbiya metodlari yoritiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga kuyiladigan Davlat talablarida belgilangan kursatkichlarga erishish 6-7 yoshdagi bolalarni maktabga to'la to'kis tayyorlashga, maktabda beriladigan ta'limni mukammal o'zlashtirishga, mustakil O'zbekistonning ravnaki uchun xizmat kiladigan barkamol inson bo'lib yetishishlariga zamin xozirlyadi.

### **1.3. «Bolalarni maktabga tayyorlash» fanining vazifalari.**

Maktabgacha ta'limning vazifalari: bolalarni xalkning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axlokiy jixatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik xislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish extiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustakil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruxiy sogligini ta'minlashdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga kuyilgan maksad va vazifalarning bajarilishi «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga kuyiladigan Davlat talablari» orkali nazorat kilinadi. Davlat talablaridan maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya mazmunining asosiy yunalishlari xamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga kuyiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo'lib u davlat xujjati sifatida e'tirof etiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni uch boskichda amalga oshiriladi:

Bolalarni jismonan rivojlantirish.


Bolalarning nutki va tafakkurini rivojlantirish.

Bolalarni ma'nan rivojlantirish.

Maktabgacha ta'limning maksad va vazifalariga tayangan xolda «Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi» fanining maksadi tinglovchilarni maktabgacha

yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashning metod va usullari bilan tanishtirishdan iborat.

«Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi» fani quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:



Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish xalk ta'limi sistemasining boshlangich bulimi bo'lgan maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishini davr talabi darajasida olib borish maksadida «Bolalar bogchasida ta'lim-tarbiya dasturi» tuzilgan. O'zbekiston xalk ta'limi Vazirligi bu dasturni respublikamizning o'ziga xos tomonlarini: iklimi, jugrofiy, iktisodiy, madaniy, milliy sharoitlarini xisobga olib, uni kayta ishlab chikdi. Dastur tug'ilgandan to yetti yoshgacha bo'lgan bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar xajmini o'z ichiga oladi. U maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning psixologik-fiziologik va o'ziga xos xususiyatlarni xisobga olgan xolda ularni xar tomonlama kamol toptirishni nazarda tutadi.

#### **1.4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash tamoyillari.**

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Bu davrda bola dunyoni anglaydi, ona tilini o'zlashtiradi, ota-onasi, oilasi, mahallasi, Vataniga mehri uyg'onadi.

Umri davomida olinadigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda, eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim tashkilotining hissasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz o'qitish tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, poydevoriga aylangan.

To'plangan xalqaro tajribalarga ko'ra, sifatli maktabgacha ta'limga sarmoya kiritish bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, ijtimoiy moslashuvi, zaruriy bilim va ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Bolaning yoshi va individual imkoniyati, qobiliyati va ehtiyojiga mos ravishda keyingi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi, alohida ehtiyojli bolalarga individual ta'lim dasturlari, shuningdek, zamonaviy inklyuziv maktabgacha ta'lim-tarbiya olish imkonini beruvchi qulay muhit yaratish kunning muhim vazifasidir.



Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning poydevoridir. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga ishtiyoq uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlaydi. Shunday ekan, bu tizimni yanada kuchaytirish, nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, balki oilalarda ham har tomonlama qulay shart-sharoit yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda quyidagi tamoyillarga tayanish muxim:

- ✓ ta'lim olish motivatsiyasi-ta'lim jarayonining barcha kismini bolalarning extiyoji va kizikishlariga ko'ra tashkil etish;

- ✓ oliy jarayonlarni rivojlantirish- ta'limni tashkil etishda bolalardagi psixik jarayonlarning barchasi ishtirok etishi talab etiladi, turli xil faoliyatda muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli xal etish va ijodiy faol xarakterni ta'minlash;

- ✓ ma'lumotlarni sayta ishlash-bolalar topshiriklarni mustakil ravishda bajaradi, muammo yechimini izlab, eng maqbul javoblarni tanlaydi va anik xulosa chikaradi.

Tarbiyachilar tomonidan bola uchun qulay pedagogik sharoit yaratilishi lozim. Bolani majburlash emas, uning extiyoji va kizikishlariga e'tibor berish maksadga muvofik. Bolalar extiyojini kondirish orkali ta'lim jarayonida ularning faol bulishlariga erishish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelgusida maktabda yaxshi o'zlashtirishi, maktabga moslashuvning yengil o'tishi, bola shaxsida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, qiyinchiliklarni bartaraf etishni amalga oshirishda shu bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasiga jalb etilganligi, bu bilan ta'limga qamralganligi alohida ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan har bir maktabgacha ta'lim muassasasi jamoasi o'z xududida yashovchi oilalarning tarkibini o'rganib, oiladagi 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning ta'limga qamralganlik darajasini o'rganishlari zarur. Bu jarayon ancha jiddiy munosabatni talab etadi. Avvalo, xar bir

oilaning ijtimoiy xolatiga e'tibor berish talab etiladi. Shuningdek, oiladagi 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning ta'limning qaysi turi va ko'rinishiga jalb etilgani aniqlanadi. Agar bola maktabgacha ta'lim muassasasiga qamrilmagan bo'lsa, u xolda buning sababi albatta belgilanadi.

Ota-onalarga tegishli tavsiya va maslaxatlar berish, tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borish rejalashtiriladi. Bu ishning mazmuni va tuzilishi yuzasidan mahalla faollari bilan ham hamkorlik qilish lozim. Masalan, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasi qoshida tashkil etilgan qisqa muddatli guruhlariga jalb etish, qo'shimcha ta'lim bilan qamrash, oilada ta'lim berish orqali ularni maktab ta'limiga tayyorlash borasida tavsiyalar berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktabgacha ta'limga qamrilmagan bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga jalb etish ham o'ziga xos yondashuvni talab etadigan jarayon. Bunda, avvalo, ota-onalarning maktabgacha ta'lim muassasasi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, ijobiy fikrlar xosil qilish, muassasada tashkil etiladigan ta'limiy jarayonga ularni jalb qilish, hamkorlikdagi tadbirlar tashkil etish, mahalla va maktab hamkorligidagi tadbirlarga ota-onalarni jalb etishga e'tibor qaratiladi. Pirovard maqsad, ota-onalar ongida bolaning maktab ta'limiga tayyorligida ularning shaxsan mas'ulligi haqida fikrning shakllanishi, buning uchun ota-onalar o'z farzandlarini albatta maktabgacha ta'lim bilan qamralishiga sharoit yaratishlari lozimligini tushunib yetishlaridan iborat.

Ijtimoiy maktabgacha ta'lim muassasalari davlat maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi, ruxiy – ijtimoiy yo'nalishda ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, nutqining talab darajasida shakllanishi hamda aqliy rivojlanishni ta'minlaydi. Shu munosabat bilan, har bir bolaning maktabgacha ta'limga qamralishi davlat ahamiyatidagi vazifa ekanligi, ota-onalar ham bu borada mas'ul ekanligi e'tiborga olinishi zarur. Oilani ta'limga jalb qilish maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishga qaratilgan har qanday dasturning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Oilaning boshqa a'zolari ham, masalan, ota-onasi, buvisi, aka-opalari jalb qilingan holda ta'lim ishlari olib borilsa, bolalar o'qishga, ta'lim muassasasiga nisbatan yanada ijobiy munosabatda bo'ladilar va yaxshi o'zlashtirishni namoyon qiladilar.

Oilalar ham o'z navbatida ta'lim muassasasida ro'y berayotgan voqealardan xabardor bo'lishlari hamda o'z bolalarining ta'lim jarayonida faol ishtirokchi bo'lishlari kerak. Oilalar ta'lim jarayoniga faol jalb qilinsalar, ular farzandlari nimalarga qodir ekanidan xabardor bo'ladilar, boladan nima kutishni tushunadilar, bolaning ta'lim olishiga qanday yordam ko'rsatishni anglaydilar. Xuddi shuningdek, pedagoglar ham bolaga o'z imkoniyatlaridan unumli foydalanish, belgilagan maqsadlariga yetishishida yordam berish uchun bolaning oilaviy ahvolini bilishlari muhim.


Maktabgacha yoshdagi bolani maktab ta'limiga tayyorlashda eng ma'qul muhit maktabgacha ta'lim muassasasi hisoblanadi. Chunki bu yerda bolalar ta'lim-tarbiyasiga zaruriy shart-sharoitlar yaratilgan: mutaxassis ishlaydi, bolalar kun tartibiga rioya qiladilar, metodik va amaliy qo'llanmalar bola soniga va yoshiga mos bo'ladi. Bolaning o'zlashtirishi tashxis qilinadi. Ta'lim-tarbiya davlat me'yoriy hujjatlari asosida olib boriladi. Davlat talablari va dasturga amal qilinadi. Bola maktab ta'limiga tayyorlanadi. Demak: bolaning maktab ta'limiga tayyorligini ta'minlashda uning maktabgacha ta'lim muassasasiga qamralganligi muhim ahamiyatga ega.



### 1.5. Olti yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"ga muvofiq, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar qamrovining yangi maqsadli ko'rsatkichlariga ko'ra, 2025 yilga kelib olti yoshli bolalarni majburiy bir yillik bepul tayyorlov guruhlariga to'liq jalb qilish, shuningdek, 2030 yilgacha respublikadagi 3-7 yoshdagi bolalarning 80,8 foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish rejalashtirilgan.

Yurtimizdagi maktabgacha ta'lim tizimiga qamrab olingan 669 ming 198 nafar 6 yoshli bolalarning 114 ming 286 nafari qisqa muddatli guruhlarda, 89 ming 240 nafari boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik bepul tayyorlov guruhlarida, 311 ming 618 nafari esa maktabga tayyorlov guruhlarida qamrab olindi. Bu haqda Milliy matbuot markazida Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosiga oid masalalar yuzasidan o'tkazilgan matbuot anjumanida ma'lum qilindi. Ta'kidlanishicha, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olingan 6 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash uchun "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi hamda "Ilm yo'li" variativ o'quv dasturidan foydalanilmoqda. Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash tizimi orqali maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sog'lom, faol, barkamol, ijtimoiy moslashtirilgan bolalarni tarbiyalash, kelgusida muvaffaqiyatli o'quv faoliyati uchun shart-sharoitlarni shakllantirish va ularni boshlang'ich ta'limga sifatli tayyorlash 6 yoshli bolalarni





maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash xarajatlari to'liq byudjet hisobidan qoplanib, 1 nafar bolaga davlat byudjetidan oyiga 416 ming 700 so'm, yiliga 5 million so'm mablag' ajratilmoqda. Majburiy bepul ta'limga 2020 yilda 50

milliard so'm, 2021 yilda 57,8 milliard so'm mablag' ajratilgan.

Ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda 6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish ko'rsatkichlarining kengayib borishi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalarning davlat talablariga muvofiq har tomonlama aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek, maktabgacha ta'limga qamrab olingan bolalar kelgusida boshlang'ich ta'lim davrida o'zlarini erkin his qilishlari, tengdoshlari bilan oson ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Darhaqiqat, 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhleri hamda qisqa muddatli guruhlar bolalarini to'liq kunlik maktabgacha ta'lim tashkilotiga berish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoki muayyan sabablarga ko'ra, bunga intilmaydigan ota-onalarning talab-ehiyotlarini qondirishga ham xizmat qiladi.

Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o'zgaradi. Maktab yoshiga yetgach bolalarning asosiy faoliyati, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi o'zgaradi, ya'niasosiy faoliyat o'qish bo'lib qoladi. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyogarliligiga xam bog'liq. Bola maktabga o'qish uchun kelar ekan u yangi ijtimoiy mavqeini -turli majburiyatlari va xuquqlari bo'lgan va unga turli talablar qo'yiladigan -o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lishi lozim. Katta bog'cha yoshdagi bolalar asosan maktabda o'qish uchun extiyoj sezadilar, lekin bu hohish va extiyoj motivi turlicha bo'lishi mumkin:

- Menga chiroyli forma va daftar, qalam va ruchkalar sotib olib berishadi;
- Maktabda uxlatishmaydi;
- Maktabda o'rtoqlarim ko'p bo'ladi va men ular bilan mazza qilib o'ynayman;
- Men otam(onam)ga o'xshagan bo'lishim uchun o'qishim kerak;-Yozishni juda yaxshi ko'raman;
- O'qishni o'rganaman;

– Maktabda qiyin misollarni yechishni o‘rganaman. Ushbu hoxish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi uchun tabiiy ravishda asos bo‘la oladi. Bolaning endi o‘zini katta bo‘lganini, bog‘cha bolasi emas, balki ma‘lum bir majburiyatlari bor bo‘lgan o‘quvchi bo‘lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug‘ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishni istamasligi xam salbiy holat hisoblanadi. Maktabda shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o‘qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni xam o‘z ichiga oladi.

Har bir bola bolalar jamoasiga qo‘shila olishi, ular bilan xamkorlikda harakat qila olishi ba‘zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur, ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta‘minlab beradi. 7 yoshli bolalar o‘qishdagi asosiy qiyinchilik shundan iboratki, ko‘pincha bu yoshdagi bolalar o‘qituvchini uzoq vaqt davomida eshita olmaydilar.

O‘quv xarakatlariga uzoq vaqt diqqatlarini karata olmaydilar. Bunga sabab faqat shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olishi xususiyatiga ham to‘la bog‘liq. Chunki shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar, qiziqtirgan narsalar xaqida so‘ray oladilar. Natijada ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi va o‘qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshita oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o‘qishida shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligining xam ahamiyati juda katta.

Maktab hayoti haqida bolalar o‘z tasavvurlari doirasida biladilar xolos. Maktabga kelgach bolalarga yangi bir dunyo ochiladi, bolalarning o‘yin faoliyati asta-sekin o‘z o‘rnini o‘qish faoliyatiga bo‘shatib beradi. Bolalarning ushbu faoliyatga ko‘nikishi bir muncha qiyinroq kechadi. Ayrim bolalar maktab partasi tagida o‘zining sevimli o‘yincho‘gi bilan o‘tiradilar. 7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo‘lgan o‘qish ulardan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo‘lishlarini talab etadi.



O‘qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o‘tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va tartiblilik xislatlari bo‘lishi kerak. Maktabgacha ta‘lim muassasidan maktabga o‘tishlari natijasida kattalar bilan bo‘lgan munosabatlarida anchagina o‘zgarishlar yuz beradi. Bola uchun maktabdagi o‘qituvchining talabimaktabgacha ta‘lim muassasi tarbiyachisi talabidan farq qiladi. Bola darsda o‘qituvchining topshiriqlarini bajarishi, o‘qituvchini tinglashi va bir vaqtning o‘zida yozishi lozim bo‘ladi.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, bola maktabga o'tishi bilan uning ijtimoiy holatida ham o'zgarish ro'y beradi, chunonchi maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida «katta» deb hisoblanadilar. Maktabga kelgach esa, ular yana «eng kichkinalar» qatoriga tushib qoladilar. Maktabgacha ta'limda bolalarning jismoniy jihatdan o'sishlarigaqanchalik e'tibor berilsa, ularning aqliy va axloqiy o'sishlariga ham shunchalik e'tibor beriladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ixtiyoriy diqqatga aylana boradi. Ularda xotira va irodaviy sifatlar rivojlanadi.

Bolalar maktabga chiqish arafasida bo'ylari o'sishi bilan bir vaqtda mustaqil harakatga ko'proq ega bo'la boradilar. Ularning maktabga chiqishlari doimo nazarda tutilib, o'tkaziladigan turli didaktik mashg'ulotlarda bolalarning idroklari, tasavvur va xotiralari, hayol hamdatafakkurlari, irodalari mashg'ulotlar jarayonida muntazam ravishda taraqqiy ettirib boriladi. Bolalarni maktabdagi o'qish jarayoniga tayyorlashda ularning nutqini o'stirish juda zarur asosiy shartlardan biridir. Shuning uchun katta guruh bolalarini maktabdagi o'qishga tayyorlashda o'z ona tillarini yaxshi o'rganishlariga, yani so'z boyligini orttirishga, to'g'ri talaffuz va to'la hamda to'g'ri jumla tuza olishlariga ahamiyat berish kerak.

Bolalarning tashqi olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, boyitish ishlari ularning nutqini o'stirish asosida olib borilishi lozim. Shu narsa e'tiborliki, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi maktab yoshiga to'lgan barcha bolalar maktabdagi o'qishga baravar tayyor bo'lavermaydilar. Ayrim bolalar maktabga kelgach, yangi sharoitga tez kirishib keta olmaydilar. Ularda o'qish uchun qandaydir bir xususiyat yetishmayotgandek ko'rinadi. Bu o'rinda shunday bir savol tug'iladi: Bolalarni psixologik jihatdan maktabdagi o'qishga tayyor deb hisoblashga nima asos bo'lishi mumkin? Ayrim psixologlarning fikricha, bola maktabda o'qishi uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir anchagina tasavvurlarga ega bo'lishi hamda malum darajada aqliy jihatdan o'sgan bo'lishi lozim. Biroq hayotda shunday voqealar uchraydiki, anchagina tasavvur boyligiga ega bo'lgan va hattoki yozish hamda o'qishni biladigan bolalar ham maktabdagi o'qishga tayyor bo'lmaydilar. Ular maktab va o'qituvchining talablarini bajara olmaydilar. Aksincha, ayrim bolalar yetarli tasavvur boyligiga ega bo'lmasalar ham, maktabda o'qib keta oladilar.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda kimlar va qanday tashkilotlar bilan hamkorlik ishlari olib boriladi?
2. Bolalarni maktabga tayyorlashda bajariladigan asosiy vazifalarni sanab bering.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda qanday tamoyillar muhim sanaladi?

4. 2030-yilgacha respublikadagi 3-7 yoshdagi bolalarning nechi foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish rejalashtirilgan?



## **2-§. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA “ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI” ASOSIDA BOLANI MAKTABGA TAYYORLASH**

**Tayanch tushunchalar:** *umuminsoniy qadriyatlar, badiiy fikr, emotsional sezgirlik, rivojlanish markazlar, konsepsiya.*

### **2.1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari**

#### **Davlat talablarining maqsadi va asosiy vazifalari**

Davlat talablarining maqsadi – mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalash.

Davlat talablarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

#### **3-bob. Davlat talablarining asosiy prinsiplari**

Davlat talablari quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

bolaning noyobligi;

“Men” konsepsiyasi va shaxsiy ta'limini yaratishda bolaning faol roli;

bolaning huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi;

bola ta'limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli;

bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli har bir bolaga moslashuvchan bo'lib, individual variativlik asosida yondashish.

#### 4-bob. Davlat talablarining tarkibi

Davlat talablari rivojlanish sohalari integratsiyasini nazarda tutadi va bola rivojlanishiga ko'maklashadi.

Davlat talablari tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalariga bo'lingan. Har bir rivojlanish sohasi o'z o'rnida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlaridan) iborat.

Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo'yicha belgilanadi:

jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;

ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

bilish jarayonining rivojlanishi;

ijodiy rivojlanish.

"Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

yirik motorika;

mayda motorika;

sensomotorika;

sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik.

"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

"Men" konsepsiyasi;

hissiyotlar va ularni boshqarish;

ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

"Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

nutq va til;

o'qish malakasi;

qo'l barmoqlari mayda motorikasi.

"Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

intellektual-anglash malakalari;

elementar matematik malakalar;

tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

"Ijodiy rivojlanish" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

dunyoni badiiy tasavvur etish;

badiiy-ijodiy qobiliyatlar.

Davlat talablari asosidagi yosh davrlari quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

go'daklik (tug'ilgandan 1 yoshgacha);

erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);

kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);

o'rta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha);  
katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);  
maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha).

Ilk yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan talablar mazkur Davlat talablariga 1-ilovada belgilangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan talablar mazkur davlat talablariga 2-ilovada belgilangan.

## **2.2. Maktabgacha ta'limda faoliyat markazlarini tashkil etish bola shaxsini shakllantirish omili sifatida.**

«Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari» va «Ilk qadam» o'quv dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. O'quv dasturda maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi. Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturining 6-bobida ko'rsatib o'tilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga rivojlantiruvchi muhit mazmuniga quyidagilar ko'rsatiladi:

- maktabgacha ta'lim tashkilotining ko'rgazmali-rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlar: milliy va mintaqaviy an'analar; tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi lozim;

- muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim.

Albatta, maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish (faoliyat) markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Dastur asosida tashkil etiladigan rivojlanish markazlari bolalarda quyidagilarni tarkib toptiradi:

- tanqidiy fikrlash;

- tanlashni amalga oshirish;

- muammolarni eta olish;

- ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish;

- odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to'g'risida g'amxo'rlik qilish.

### **2.3. Bolalarni maktabga tayyorlashda rivojlanish markazlarining faoliyati**

Inson faoliyati barcha sohalarida dinamik rivojlanayotgan texnologiyalar joriy etilmoqda. Zamonaviy bolalarning 65 foizi bugungi kunda mavjud bo'lmagan kasblarni egallaydi. Kelajakdagi mutaxassislar texnologiya, ilm-fan va muhandislikning turli xil sohalaridan kompleks ta'lim va bilimlarga muhtoj bo'ladi. Oqilona tashkil etilgan sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko'rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag'bat uyg'otadi. Bunda tarbiyachilar bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlari, buning uchun esa ularni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari zarur bo'ladi.

Tarbiyachi o'quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagogik jamoasining o'rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo'yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo'llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari kerak. Bola rivojlanishining o'ziga xosligini inobatga olishda, avvalo, shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma'lum bosqichlarini bosib o'tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir.

Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o'xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta'minlashlari uchun ularning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek,

tarbiyachilar bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e'tibor bilan munosabatda bo'lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta'kidlashadi. Bunda bola rivojlanishining o'ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya'ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma'naviy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o'z g'oyalarini tajribada sinab ko'rish xoxish-istaklariga qaratilganidir. Bunda bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'zlari javob topishiga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash barobarida bolada qiziqish, dalillash va e'tibor berish avtomatik tarzda faollashadi. Bunda tarbiyachining roli savolni soddalashtirmasdan va bolani ko'p axborot bilan chalg'itmasdan uni qoniqtiradigan javob topish yo'llarini birgalashib qidirishdan iboratdir.

Rivojlanish markazlaridagi ta'lim jarayonida bolalarning o'zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug'ilib qolsa topshiriq va materiallarni o'zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin.

"Ilk qadam" o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati yuritilishi nazarda tutiladi:

- Qurilish va konstruksiyalash markazi

- Sog'at-rolh o'yinlar va dramalashtirish markazi

- Til va nutq

- Ilm-fan va tabiat markazi

- Sog'at markazi

- Musiqa va ritmika markazi

Rivojlanish markazlari bolalarga o'zlarining shaxsiy ko'nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini mustaqil

individuallashtirish imkoniyatini beradi. Masalan, san`at markazida bir bola qog`oz qirqadi, boshqa bola esa shu qog`ozdan qaychi bilan o`zi o`ylagan shaklchani kesib oladi. Stol ustida o`ynaladigan o`yinlar markazida bir bola to`rtta yog`och kubikdan shakl yasaydi, boshqa birovi esa yigirma besh bo`lakli karton qog`ozli tasvirni tuzishni ma`qul ko`radi. Tarbiyachi jarayonda bolalarni kuzatadi va ularning rivojlanishiga daxldor fikrlarni yozib boradi. Ancha vaqtdan so`ng u bolalarga vazifani murakkablashtiruvchi materiallarni taklif etadi yoki vaziyatga qarab ana shu vazifalarni bajarishda bolaga to`g`ridan to`g`ri yordam beradi. Bunday yo`l tutish tufayli bola yaxshi sur`atda o`sib-ulg`ayishi mumkin.

Tarbiyachilar rivojlanish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o`ynaydilar, mashg`ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta`min etadilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini egallay olgan xolda faoliyat turlarini rejalashtiradilar. Kun tartibi turli mashg`ulot turlarini o`zida qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda birgalikda va tarbiyachi hamkorligida yakka tartibda (individual) yoki mustaqil (ular tomonidan tanlagan mashg`ulotlarga vaqt ajratish kerak, chunki bolalar ongli tanlab olishni o`rganadilar, o`z qiziqish va qobiliyatlarini amalga oshiradilar). Bolalarning o`z tanlovlarini amalga oshirishi, muammolarni hal etishi, atrofdagi kishilar bilan birgalikda harakat qilishi, individual maqsad qo`yishi va unga erishishni bilishlari lozim. Guruhlardagi markazlar shunday tarzda yaratilishi kerakki, u bolaga mustaqil tanlash imkonini bersin. Har bir guruhda 6 ta markazlar bo`lib, ularning har birida izlanish va o`yinlar uchun yetarli miqdordagi materiallar saqlanadi.

Qurilish va konstruksiyalash markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo`lib, bolalar ulardan o`z fantaziyasiga tayangan holda inshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko`rgan tarixiy obidalari, uylar, garaxlar, ferma va shu kabilar. Qurilish bilan mashg`ul bo`lgan bolalar bu yerda juda ko`p narsalarni o`zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko`nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni xal etish tajribasini beradi. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o`rganish mumkin. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xoxish-istagiga ko`ra ko`plab turli narsalarni – o`yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo`laklarini qo`shib qo`yish mumkin.

Syujet-rolli o`yinlar va dramalashtirish markazida bolalarda haqiqiy hayotdan olingan kichik sahna ko`rinishlarini o`ynashga xoxish-istak uyg`otish uchun albatta kerakli kiyimlar va boshqa narsalar bo`lishi zarur. Bular ularda atrofda nimalar sodir bo`layotganini anglash, ularni ajrata olish hamda hayotda o`z o`rinlarini tushunib yetishlariga yordam beradi. Til va nutq markazida kitoblar va eshitish hamda yozish uchun o`quv qurollari mavjud bo`ladi. Bu tinch burchak bo`lib, unda bolalar kitoblarni qarab chiqishlari, bir-birlariga o`qib berishlari mumkin. Shuningdek, bu yerda

tarbiyachi yoki ko'ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o'qib berishi mumkin. Unda bolalarga kitobchalarni o'z qo'llari bilan yasash, mavzu(syujet)larni o'ylab topish va ijro etish, hikoyalar eshitish taklif etiladi. Ilm-fan va tabiat markazida boshqotirma va konstruktor kabi bolalar yig'ishi va bo'laklarga ajratishi mumkin bo'lgan narsalar bo'lishi lozim. Bu yerda, shuningdek, bolalarning bir xilda taqqoslashlari, turlicha tasniflashlari, sanashlari uchun yordam beradigan o'yinlar ham bo'lishi kerak.

Ushbu markazda bolalarning tabiat hodisalari haqida bilib olgan tushunchalari va ko'chadan topilgan narsalar bilan mashg'ul bo'lishlari uchun foydalaniladi. San'at markazi bolalarning o'z ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o'tkazish va amalga oshirishga rag'batlantiradi, ularga yangi materiallar bilan tanishishdan qoniqish olish imkoniyatlarini beradi, bolalarning sezish qobiliyatini boyitadi. Bu yerda bo'yoq, qog'oz, qaychi, bo'rchalar, qalamlar, gazlama bo'laklari va kesish hamda yelimplash uchun turli qiyqimlar mavjud. Shuningdek, tabiiy materiallar – yog'och, barg, qum-tuproqni ham qo'shib qo'yish foydadan xoli emas. Ushbu markazdagi mashg'ulotlar ijodiy qobiliyat, so'z orqali va so'zsiz muloqot, umumiy va nozik harakatlanish, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Musiqadan va ritmika markazi butun kun davomida mashg'ulotlarni birlashtirish uchun foydalanish mumkin. Kuylash, harakatlar, qarsak chalish, o'yinlar, musiqa asboblari chalish va yozilgan kuy-qo'shiqlarni tinglash har qanday dasturni yaxshigina to'ldiradi. Musiqaviy mashg'ulotlar zehnni charxlaydi, ritmga, sanashga o'rgatadi va nutqni rivojlantiradi; umumiy va nozik harakatlanishni (motorikani) rivojlantiradi va ijodiy qobiliyatni namoyish etishga imkon beradi. Xulosa qilib aytganda, pedagoglarning vazifasi – bolalarning muloqotga kirishishga bo'lgan qiziquvchanligini rag'batlantiruvchi muhitni yaratish va bolalarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga qarab, o'z vaqtida kerakli sharoitlarni moslashtirgan hamda ularni kuzatishdan iborat.

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Davlat talablarining maqsadi nimalarni o'z ichiga oladi?
2. Davlat talablarining asosiy vazifalarini sanab bering.
3. Bolalarni maktabga tayyorlashda qanday rivojlanish markazlaridan foydalaniladi?
4. Rivojlanish markazlari bolalardagi qanday qobiliyatlarni shakllantiradi?



### **3-§. BOLALARNI MEHNAT MALAKA VA KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH ORQALI MAKTABGA TAYYORLASH**

**Tayanch tushunchalar:** *javobgarlik, mustaqillik, maqsadga qaratilganlik, qat'iylik, tashabbuskorlik, faollik, sabr-matonatilik, chidamlilik.*

#### **3.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish mazmuni**

Mehnat tarbiyasi bolalarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismla-ridan biri hisoblanadi.

Mehnat tarbiyasining maqsadi bolalarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Shuningdek, mehnat orqali bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish, kelajakdagi mehnat faoliyatiga ruhiy jihatdan tayyorlash, ularda mehnat qilish xohishini singdirib borish ham alohida ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi mehnat tarbiyasining vazifalari xilma-xil bo'lib, ularni quyidagi uch katta guruhga tasnif etish mumkin:

Birinchi guruh vazifalari bolalarning mustaqil mehnat faoliyatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish bilan belgilanadi:

1. Bolalarni maqsad qo'yishga, mehnat ko'nikma va malakalari, mehnat madaniyati bo'yicha kerakli materiallar va mehnat qurollarini tanlab olishga o'rgatish.

2. Bolalarda bo'lajak mehnat faoliyatini shakllantirish, mehnat jarayonlarini mehnatda qatnashuvchilar o'rtasida taqsimlash, mehnatda yaxshi natijalarga erishish malakalarini shakllantirish.

3. Mehnat faoliyatining dastlabki ijtimoiy sabablarini shakllantirish, buyumlar va harakatlarga qiziqish uyg'otish orqali mehnat natijalariga erishish, katta guruhlarda esa mehnatning ijtimoiy ahamiyatli ekanligini anglab yetish.

Ikkinchi guruh vazifalari kattalar mehnatiga ijobiy munosabatni tarbiyalashga qaratilgan:

1. Bolalarga kattalarni qanday natijalarga erishish uchun mehnat qilayotganini tushuntirish.

2. Bolalarga mehnat ahliga hurmatni, ularga qo'ldan kelganicha yordam berish xohishlarini tarbiyalash.

3. Kattalarning mehnat natijalarini asrab-avaylashga o'rgatish.

Uchinchi guruh vazifalari mehnat faoliyatida bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan:

1. Bolalarda mehnatsevarlik, har qanday mehnatga qatnashish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish uchun bor kuchini ayamaslik, o'z shaxsiy mehnatiga nisbatan to'g'ri munosabatni tarbiyalash.

2. Javobgarlik, mustaqillik, maqsadga qaratilganlik, qat'iylik, tashabbuskorlik va faollik, sabr-matонатlilik, chidamlilik kabi bola shaxsining axloqiy sifatlarini tarbiyalash.

3. Madaniy xulq va o'z tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash, o'zaro kelishgan holda birga ishlay olish, jamoa ishida natijaga erishguncha o'z mehnati bilan qatnashish, o'zi va o'rtoqlarining mehnatini xolisona baholash, yordam berish.

Maktabgacha ta'lim muas-sasalarida mehnat tarbiyasi ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

- 1) kattalar mehnati bilan tanishtirish;
- 2) bolalarning o'zini mehnatga o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali ularga kattalar mehnati ijtimoiy-foydali, ishlab chiqarish mehnati bo'lib, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga qaratilganligi haqida tushuncha berish, kattalar mehnati haqida aniq bilim va tasavvur hosil qilish, mehnat va mehnat natijalarini qadrlashga o'rgatish, mehnatga qiziqish va muhabbatni uyg'otish, mehnat qilish xohishini tarbiyalash kabilar amalga oshiriladi.

### **3.2. Turli yosh guruhlardagi bolalarni kattalar mehnatiga o'rgatish**

"Ilk qadam" dasturiga binoan har bir yosh guruhidagi bolalar kattalar mehnati to'g'risida quyidagi bilim va tasavvurlarni egallab olishlari lozim:

*Ilk yosh guruhida:*

1. Kattalar mehnatiga qiziqishni tarbiyalash.
2. Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarining mehnat jarayonlari bilan tanishtirish.

3. Bolalarga kattalarning mehnatini hurmat qilish tuyg'usini shakllantirish.

*Kichik yosh guruhida:*

Kattalar mehnati natijasida kerakli narsalar, pred-metlar yaratilishini tushuntirish. Oshpaz, kir yuvuvchi, sotuvchi, quruvchi, haydovchi mehnati va ularning asosiy ishlari haqida bilim berish.

Ish natijasi va uning ahamiyatini ajratib ko'rsatishga o'rgatish.

Kattalar mehnati uchun zarur bo'ladigan materiallar, kishilar mehnatini yengillashtiradigan, mehnat jarayoni va natijalariga erishishni tezlashtiradigan mashinalar bilan tanishtirish.

Turli transport vositalari va kasblar haqida tushuncha berish. Bolalarning bu boradagi bilimlarini kengaytirish va ularning nomlarini to'g'ri aytishga odatlantirish.

*O'rta guruhda:*

Bolalarda kattalar mehnatiga hurmat va qiziqish hissini tarbiyalash.

O'zbek xalqining milliy hunarmandchilik mehnati – duradgorlik bilan tanishtirish.

Dehqon mehnati haqida qisqacha ma'lumot berish.

Bolalarning o'z tarbiyachisi va boshqalar mehnati haqidagi tushunchalarini kengaytirish.

Bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish jarayonida ularda inson va uning mehnatiga hurmat hissini shakllantirishga e'tiborni kuchaytirish.

*Katta guruhda:*

Bolalarning kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini umumlashtirish.

Ishlab chiqarish korxonalari, qurilishlar, dalalarda qilinadigan mehnat haqidagi bilimlarini takomillashtirish. Mehnatning shu joyda tarqalgan turlari bilan bolalarni yaqindan tanishtirish.

Ularni yaqin atrofdagi korxonaga olib borish (mebel, avtomobil, televizor, chinni ishlab chiqaruvchi korxonalar, novvoyxona va h.k.). Bu korxonaning nomi, u yerda kimlar ishlaydi, qanday mahsulot ishlab chiqarishi, mehnat quroli va asboblari haqidagi bilimlarini aniqlash va takomillashtirish.

Ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni mamlakat aholisi uchun ahamiyati bilan tanishtirish.

Mashinasoz, tikuvchi, kosib, nonvoy, oshpaz, o'ymakor, bo'yoqchi, haydovchi kabi kasblar bilan tanishtirish.

Ishning maqsadi, natijasi va ularning jamiyat uchun ahamiyati, turli xil "aqlli" mashinalarning kishilar mehnatini yengillashtirishi, tovarlar sifatini yaxshilash va ishlab chiqarishni tezlashtirishdagi roli haqidagi bilimlarini kengaytirish.

*Maktabga tayyorlov guruhida:*

Bolalarni zargarlik, zardo'zlik, misgarlik, ganchkorlik kabi xalq hunarmandchiligi bilan tanishtirish.

Bolalarni kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish, kishilar mehnatiga hurmat hissini tarbiyalashni davom ettirish.

Bolalarga dehqonchilik, chorvachilik haqida so'zlab berish va ularni dehqon, chorvador va bog'bon mehnatining mazmuni bilan tanishtirish.

Bozor haqida tushuncha berish.

Pochta aloqasi xizmati bilan tanishtirish.

Pochtaning vazifasi va ahamiyati haqida ma'lumot berish.

Telefon aloqasi va telegrafchilar, ularning mehnati, telefon hizmatining hayotimizdagi ahamiyati haqida ma'lumot berish.


Buyumlarning bir necha xil belgilari va ulardan foydalanish haqida tushuncha berish.

Matodan qilingan buyumlar, ularning turlari va foydalanish usullari haqida tushuncha berish.

Temir va yog'ochdan ishlangan buyumlar va ulardan to'g'ri foydalanish haqida tushunchalar hosil qilish.

### **3.3. MTT da bolalar mehnatining asosiy turlari**

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnatini tashkil etishda mehnatning quyidagi turlaridan foydalaniladi: o'z-o'ziga xizmat qilish, xo'jalik-maishiy mehnat, tabiat quchog'idagi mehnat va qo'l mehnati (1-rasm).



1-rasm. Bolalar mehnatining asosiy turlari

O'z-o'ziga xizmat qilish – bu bolalar mehnatining bir turi bo'lib, unda bolalar ilk yoshidan boshlab mustaqil ovqatlanishga, yuvinishga, kiyinish va yechinishga, o'yinchoqlarni yig'ishtirib qo'yishga o'rgatiladi. O'z-o'ziga xizmat qilish jarayonida bolalarda mustaqillik, ma'lum maqsad bilan harakat qilish kabi sifatlar shakllanadi, bolalar mustaqil ravishda o'zlarining qo'llaridan kelgan ishni bajarishga o'rganadilar. O'z-o'ziga xizmat qilish bolalarda oddiy mehnat turlariga nisbatan qiziqish uyg'otadi, batartiblikka, intizomli bo'lishga, xulq-odobga o'rgatadi.

Bolalar xo'jalik-maishiy mehnatga maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada jalb etiladi. Xo'jalik-maishiy mehnatga xona va maydonchani yig'ishtirish, stolni bezatish va stoldagi idish-tovoqlarni yig'ishtirish, choy idishlarini, qo'g'irchoq kiyimlarini, mayda narsalarni yuvish, mashg'ulotga kerakli materialni tayyorlab qo'yish, mashg'ulotdan keyin stol ustidagi narsalarni yig'ishtirib olish kabilarni kiritish mumkin.

Tabiatdagi mehnat bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'simlik va hayvonlar, yil fasllari, jonsiz tabiat burchagidagi bilimlar manbai, bolalarda mehnatsevarlikni, tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllan-tirish vositasidir. Shu bilan birga bolalar mehnatning bu turi orqali tuproqni ekishga tayyorlash va o'g'itlash, ko'chat o'tqazish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi bir qancha mehnat ko'nikma va malakalarini egallab oladilar. Mehnatning asosan ochiq havoda tashkil etilishi bolalar organizmini chiniqtiradi, ularning sog'ligini mustahkamlaydi.

Tabiatdagi mehnat bolada bilishga qiziqishni rivojlan-tirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bolalar jonli ob'ektning o'sishi va rivojlanishini kuzatadilar, ayrim o'simlik va hayvonlarning o'ziga xosliklarini bilib oladilar, tajribalarni o'tkazishda ishtirok etadilar.

Qo'l mehnati – mashg'ulot, o'yinlarga mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan o'yinchoq va qurilmalar (qog'oz qiyqimlarini tashlash uchun, o'simliklar urug'i uchun qutichalar, qo'g'irchoq kiyimlari, qalpoqchalar, niqoblar va shunga o'xshash narsalar)ni tayyorlash bo'yicha bolalar mehnatidir. Qo'l mehnatini bajarish orqali bola aniq natijaga erishadi, ya'ni narsa-buyumlar vujudga keladi. Bolalar yopishtirish, bo'yash, qirqish, arralash, mix qoqish, tikish va shunga o'xshash oddiy mehnat ko'nikma va malakalarini egallab oladilar. Ularda ijodkorlik, topqirlik, zehnlilik xislatlari rivojlanadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnatini tashkil etishning asosiy shakllariga quyidagilar kiradi: topshiriqni bajarish, indi-vidual mehnat, navbatchilik, qo'l mehnati bo'yicha mashg'ulotlar, jamoaviy mehnat.

Topshiriq – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnatini tashkil etishning boshlang'ich shakli hisoblanib, barcha yosh guruhlarida qo'llash imkoniyatini beradi.

Ilk va kichik yosh guruhlarida bolalarga uncha murakkab bo'lmagan va qisqa muddatli topshiriqlar beriladi: "O'yinchoqni, kitobni, stolni olib kel, joyiga olib borib qo'y, tushki ovqat uchun stol ustiga qoshiqlarni qo'yib chiq".

O'rta va katta guruhdagi bolalarga beriladigan topshiriqlar ancha murakkab bo'lib, ular endi xonadan tashqarida bajarishga mo'ljallangan va ma'lum bir kishiga murojaat qilish bilan bog'langan. Shuningdek, topshiriqlar (o'yinchoqlarni yig'ishtirish, gullarga suv qo'yish, to'kilgan barglarni terib, tegishli joyga olib borib tashlash) ikki-uch boladan tashkil topgan kichik guruhlar tomonidan bajarilishi mumkin.

Maktabga tayrlov guruhida beriladigan topshiriqlar yana ham murakkablashadi. Bunday topshiriqlar boladan alohida mas'uliyatni va boshqalarga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishni tarkib toptirish bilan bog'liq bo'ladi: kichik guruh bolalarini sayrga chiqishdan oldin, uyqudan keyin kiyinishiga yordam berish, ularning stolini tushlik ovqatga tayyorlab berish, enaga toza sochiqlarni osish, toza choyshablarni olib kelishga yordamlash va boshqalar.

Navbatchilik – bu jamoa uchun mo'ljallangan mehnat faoliyatining shakli bo'lib, u majburiy tartibda bajariladi. Bolalarning navbatchiligi kichik guruhda yil oxiridan boshlanadi.

Barcha bolalarning mehnatda doimiy ishtirok etishlarini ta'minlash uchun navbatchilikning xilma-xil turlari uyushtiriladi: oshxonada (hamma yosh guruhlarida), mashg'ulotga tayyorlanishda (o'rta guruhdan boshlab), o'simlik va hayvonlarni parvarish qilishda (katta va maktabga tayyorlov guruhlarida).

Kichik guruh bolalari oshxonada navbatchilik qiladilar. Birdaniga to'rt-besh bola navbatchilik qilishi mumkin, har bir bola bir-ikki stolni bezatadi. Katta va tayyorlov guruhlarida bolalarning vazifalari kengyada. Nonushta va tushlik ovqatga, kech tushki va kechki ovqatga dasturxon tuzatish, ovqatlanib bo'lingandan so'ng idish-tovoqni ovqat tarqatiladigan stolga yig'ishtirish, stollar ustini yig'ishtirib olish, enagaga choy idishlarini yuvishda yordam berish shular jumlasidandir. Bu yoshdagi bolalar ikkitadan navbatchilik qilishadi, ammo har bir bolaning ish hajmlari ortadi.

Mashg'ulotga tayyorgarlik bo'yicha navbatchilik o'rta guruhda – bolalar oshxonada navbatchilik qilishni bilib olganlaridan so'ng kiritiladi. Bu navbatchilar stol va stullarni, mashg'ulotga kerakli materiallarni, qo'llanmalarni mashg'ulotga tayyorlaydilar va xonani tartibga keltiradilar.

Katta guruhdan boshlab bolalar tabiat burchagida navbatchilik qila boshlaydilar. Navbatchilikning bu turi ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Navbatchilikning bu turida ham bolalar ikkitadan tayinlanadi: biri o'simliklarni parvarish qilsa, ikkinchisi jonivorlarga qaraydi. Ulardan qaysi biri bo'sh qolsa, ikkinchisiga yordam beradi.

Bolalarning mehnat tarbiyasini tashkil etish shakllaridan yana biri qo‘l mehnati bo‘yicha mashg‘ulotdir. Bilim va malaka birinchi marta berilayotgan bo‘lsa va u tushuntirish hamda barcha bolalarga yaqqol, ko‘rgazmali qilib ko‘rsatishni talab etgan hollarda ana shunday mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.

Bolalarni mehnat tarbiyasini tashkil etishning topshiriq, navbatchilik kabilarga qaraganda yana bir nisbatan murakkab shakli – bolalarning umumiy, birgalikdagi, jamoaviy mehnatini tashkil etishdir. Umumiy, birgalikdagi va ayniqsa, jamoaviy mehnat bolalarda o‘z harakatlarini boshqalarniki bilan uyg‘unlashtirish, bir-biriga yordam berishni tarkib toptirish uchun ijobiy shart-sharoit yaratadi, ishni bir xil sur‘atda bajarishni ta‘minlaydi.

Umumiy, birgalikdagi, jamoaviy mehnat bolalar faoliyatining ijtimoiy yo‘naltirilgan maqsadini birlashtiradi. Bunday mehnat natijasi hamma uchun foydali bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Xonani, maktabgacha ta‘lim muassasasi maydon-chasini tartibga keltirish, guruh xonasini bayramga bezatish kabilar bolalarning hammasini mehnat jarayonida ishtirok etishlarini talab etadi.

Umumiy mehnat qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda bolalarning mehnat faoliyatini tashkil etishda har bir bola ishning ma‘lum bir qismini bajarishlariga asoslaniladi. Masalan, tarbiyachi bolalardan guruh xonasini tartibga keltirishni so‘raydi va ularga topshiriqlarni taqsimlab beradi: Alisher va Elyor qurilish materiallarini qutiga joylaydi; Shahnoza va Maftuna qo‘g‘irchoqqa toza kiyimlarini kiydiradi; biz Sora va Behro‘z bilan birgalikda stolni ustini tozalaymiz.

Birgalikdagi mehnat bolalarning bir xil sur‘at va sifatdagi o‘zaro harakatini talab etadi. Bunday mehnat turini tashkil etishda bolalarni alohida zvenolarga birlashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, har bir zvenoga berilgan topshiqalar ham bolalar o‘rtasida taqsimlanadi: bolalardan biri o‘yinchoq-larni javondan olib, polga qo‘yadi, boshqasi javonni changdan tozalaydi, uchinchisi esa, o‘yinchoqlarni qaytadan javonga taxlaydi.

Jamoaviy mehnat bolalarda mehnatga doir hamda axloqiy vazifalarni hal etishga imkon beradi: mehnatga doir topshiriqni taqsimlash, tasodifiy zaruriyat bilan bog‘liqlikda bir-birlariga yordam beradi, umumiy, birgalikdagi ishning sifati uchun intilishadi. Bolalar mehnat faoliyatining jamoaviy shakli jamoaviy o‘zaro munosabatlarni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tarbiyalashga imkon beradi. Har qanday umumiy yoki birgalikdagi mehnat jamoaviy tavsifga ega bo‘lmasligi mumkin, biroq har qanday jamoaviy ish umumiy va birgalikdagi mehnatni o‘zida aks ettiradi.

Bolalarning mehnat faoliyatlarini tashkil etish shakllariga doir rejalashtirish ma‘quldir.

Mehnatni tashkil etish shakli sifatida barcha guruhlarda topshiriqdan foydalaniladi. O‘z mazmuniga ko‘ra topshiriqlar turlicha bo‘lishi mumkin. Tarbiyachining ish rejasida yangi topshiriq mazmunini qayd etish, so‘ngra uni bajarishga jalb etiladigan bolalar ismlarini ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu tarbiyachiga mazkur topshiriq bilan barcha tarbiyalanuvchilarni qamrab olish va ularni kerakli mehnat topshiriqlarini bajarishga o‘rgatish, barcha bolalarning qo‘lidan keladigan bo‘lib borishiga ko‘ra tarbiyachi o‘zining alo‘ida e‘tiboriga muhtoj bo‘lgan bolalarning ismlarinigina ko‘rsatib beradi.

Bolalar navbatchiligiga xabarlikni rejalashtirar ekan, tarbiyachi mexnat hajmi va mazmunini, o'zi bolalarga navbatchilarning vazifalarini tanishtirishda foydalanadigan jihoz, metod va usullarni ko'rsatadi.

Keyinchalik navbatchilik ishiga rahbarlik rejada mexnat mazmuni murakkablashgan, navbatchilikka jalb qilinayotgan bolalar tarbiyachining aloxida e'tiboriga muhtoj bo'lgan hollarda ko'rsatiladi. Vaqti - vaqtida navbatchilik bolalarning birlaridan ikkinchilariga topshirilayotgan vaqtda (katta guruhda) bolalar bilan suhbat rejalashtiriladi.

Rejada bolalarning jamoa shaklidagi mexnatlarini tashkil qilish mazmuni va tarkibi, o'tkazish vaqti ko'rsatiladi. Zarur jihozlari belgilanadi va joylashtiriladi.

Navro'z va mustaqillik bayramlaridan avval uyushtiriladigan umumxalq xasharlari, bayramlari maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarda Vatanga muhabbat, baynalmilalchi xislatini tarbiyalash, ularga xalqning jangovor va mexnat an'alarini tanishtirish maqsadlarida nishonlanadi.

Bayramlar tarbiyaning muhim vositasi sifatida puxta rejalashtirilishi lozim. Rejada muassasaning butun jamoasi, shu jumladan bolalarning ham tayyorgarliklari aks ettiriladi.

Tarbiyachining joriy rejasida bolalarga u yoki bu bayram (yoki mashhur sana) ning ahamiyati haqida hikoya qilinadigan, bolalar katta yoshlilarning bayramga tayyorgarliklari bilan tanishish imkoniga ega bo'ladigan sayr - tomoshalar o'tkaziladigan turli mashg'ulotlar nazarda to'atiladi. Bolalarni bayram ertaliklarida qatnashishga tayyorlash: she'rlar, qo'shiqlar aytish, raqsga tushish, libos va boshqa atributlarni tikishi xam rejalashtiriladi. Pedagoglar kengashida bayram dasturi ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi, bolalarni bayramga tayyorlash jarayonida ham, bayramni o'tkazish kunida xam uyushtirish shakllari o'ylab chiqiladi va puxta rejalashtiriladi.

Umumxalq bayramlariga bag'ishlangan ertaliklardan tashqari tarbiyachi bolalar bilan maishiy bayramlar va turli ko'ngil ochishlar: yangi yil bayrami, bolalarni maktabga chiqarish, bir oyda tug'ilgan bolalarning tug'ilgan kunlarini bir kunda nishonlash, shuningdek, qo'g'irchoq, soya teatrini, ko'ngil ochadigan videofilm va kinofilmlar, oynai jahon ko'rsatuvlarini ko'rsatish va shu kabilarni o'tkazishni rejalashtiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi ota - onalar o'rtasida ishlashni rejalashtirish pedagoglik targ'ibotini amalga oshirish rejalashtiriladi. Ularni oila va bolalar muassasasining bolalarga ta'sir ko'rsatishda hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadlarida ta'lim - tarbiyaviy ish mazmuni bilan tanishtiradi, bolalarni oilada tarbiyalashning ilg'or tajribasini o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi. Bu ish uzluksiz tarzida amalga oshiriladi va maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi tomonidan ham (yillik rejada), xar bir guruh tarbiyachisi tomonidan ham rejalashtiriladi. Ishni tashkil etish usullari va ularning mazmuni quyidagilarni: ota - onalar majlislarini, maslahatlarini o'tkazishni, bola oilasiga borishni, ochiq eshiklar kunini, mashg'ulotlar o'tkazishni, bolalar ishlari ko'rgazmalarini tashkil etishni, ota-onalar burchaklarini yangilash va shu kabilarni nazarda tutadi.

### Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Mehnat tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasi qanday yo'nalishlarda amalga oshiriladi?
4. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnatini tashkil etishda mehnatning qanday turlaridan foydalaniladi?
5. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnatini tashkil etishning asosiy shakllariga nimalar kiradi?
6. Umumiy, birgalikdagi, jamoaviy mehnatning o'ziga xosliklarini izohlang.



## 4-§. BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH SHAKLLARI VA METODLARI

**Tayanch tushunchalar:** *sezgi, idrok, xotira, hayol, tafakkur, nutq.*

### 4.1. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya – bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi deb ko'rsatib o'tilgan, Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma'qullangan 3-modda 5 bandida.

Yosh avlodni har tamonlama etuk shaxs qilib tarbiyalash jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan ob'ektiv zaruratdir. Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatishdir. Demak, aql keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisi bo'lib, u yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, ko'nikma va malakalar, me'yorlar, qoidalar va boshqalarda ro'y beradi. Bu holat kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi xilma-xil vositalar, metodlarni, kerakli shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma'lum maqsad asosidagi ta'sir etishdir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa,

kattadir. Chunki aql his-tuyg'ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo'lgan jarayonlar yig'indisidir.

Aqliy rivojlanish fikrning kengligida voqealarni har xil bog'lanishlarda, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiyLashtirish qobiliyatida namoyon buladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'quv, mehnat, samarali faoliyatlar: rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, applikatsiya, qurish - yasash jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishga ta'lim va tarbiya samarali ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika va psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etishda, bir tomondan, bolaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ikkinchi tomondan, bola organizmning umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha toliqtirish bo'lmasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonuniyatlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Bolalarni bilimlarni egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy malaka va ko'nikma egallab olishlari, ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning o'rni katta. Bilimlar zahirasini kengaytirish, aqliy faollikni va mustaqillikni rivojlantirish, maktabda yaxshi o'qish, keyingi mehnat faoliyatiga tayyorlanishning muhim shartidir.

Bola 6-7 yoshdan maktabga o'tishi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlantirish yetarli bo'lishini ta'minlash tarbiyachidan katta mas'uliyatni talab etadi. Maktabgacha ta'lim yoshida bilim tez sur'atda rivojlanib boradi, boyib boradi. Nutq shaqllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so'ng mashg'ulotlar, bilim berish orqali amalga oshiriladi. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmay, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni hal etishga foydalanishga o'rgatish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jixatdan rivojlantirish, ularning ruxiyat, shaxsiy qobiliyatlari, intilish va extiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik g'oyalariiga sodiq holda voyaga yetib borishni ta'minlash, ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablariga muvofiq maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi asosida amalga oshiriladi. Har bir oila barkamol avlodni tarbiyalash uchun qaygurishi lozim. Sog'lom avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustuvor yunalishidir.

So'ngi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlarini yengilashga aloqida e'tibor berilmoqda. Davlat

va jamiyat maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarni yagona talab asosida rivojlantirish vazifasini qo'ydi. Shunga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga integral tarzda ta'lim-tarbiya berish maqsadida tayanch dasturlari taqdim etilmoqda. Bu tayanch dasturlari bugungi kunda maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalariga jalb etilmagan 3 milliondan ortiq bolani ham rivojlantirish va yagona davlat talablari asosida maktabga tayyorlash imkonini beradi. Ta'lim-tarbiya jarayoni yakunida mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so'z bilan aytganda barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilandi. Bu uzluksiz ta'lim tizimining ilk turi – maktabgacha ta'limga o'ziga xos yondashuvni talab etar edi. Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, davlat va jamiyat hamda ota-ona zimmasiga uni sog'lom, aqlli, xush hulqli qilib tarbiyalash vazifasi qo'yildi.

Bu ko'nikma, malakalar bilish faoliyatini tarkibiy qismlarga bo'lib, bola bilimlarni chuqur egallab olishiga yordam beradi.

#### **4.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning vazifalari.**

Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib, bolalar tevarak-atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'ladilar, asosiy fikrlash jarayonlarini egallab oladilar. Faqat yaxshi tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi, shuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilarning asosiy vazifasi – bolaga muayyan maqsadni ko'zlab tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoit yaratishdir. Bola har doim buyumlar hamda hodisalar orasida bo'ladi. Bola doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab ko'radi, hidlaydi, tortib ko'radi, nimagadir quloq soladi. SHu tariqa asta-sekin dunyoni bilib boradi. Tevarak-atrofdagi buyumlar, tabiat bolaning sezgi organlari – analizatorlariga ta'sir etadi va sezgi hosil qiladi. Sezgi bolalarga buyumlarning ayrim xossalarini: sovuq-issiq, gadir-budur, silliq-yaltiroq, xushbo'y va h.k. ni bilim olishga yordam beradi. Sezgi atrofdagi muhitni bilishning dastlabki bosqichi sanaladi. Bola sezgi tufayligina tevarak-atrofdagi narsalar to'g'risida bilim, tajriba to'plab boradi. Idrok esa ancha murakkab jarayon bo'lib, sezgilar asosida hosil bo'ladi. Bola olmani qo'lida ushlab ko'rib, qarab chiqib va eb ko'rib, uni yaxlit bir buyum, ayni bir vaqtda dumaloq, qizargan, xushbo'y, mazali va h.k. tarzda idrok qiladi. Bola olmani yaxlit bir buyum tarzida tasavvur qilishi uchun birdaniga bir nechta analizator: ko'rish, sezish va hid bilish analizatorlaridan foydalanadi. Analizatorlar bir vaqtning o'zida birdaniga ishlashi buyumning xossasi va belgilarini aniqroq hamda to'laraq bilish imkonini beradi. SHuning uchun katta yoshdagi kishilar bolani ilk yoshlik chog'idan boshlaboq aqliy jihatdan to'g'ri tarbiyalash maqsadida buyumlarni ko'pgoq analizatorlar yordamida idrok qilishga imkon tug'digishlagi, analizatorlarning rivojlanishiga, ya'ni bolaning sensor madaniyatiga alohida yeChLog berishlari kerak.

Bolada nutq paydo bo'lishidan ancha oldin (bola bir yoshga to'la boshlaganda birinchi bor gapira boshlaydi) u tevarak-atrofdagi odamlar va buyumlar dunyosini kata yoshdagi kishilar yordamida bilib oladi. Bola 3 yoshga to'lganda uning so'z zaxirasi 1200-1500 taga etadi. Bola katta yoshdagi kishilar unga nima haqida gapirayotganlarini yaxshi tushunadi. Bu katga yoshdagi kishilar nutqidan har

tomonlama tarbiyalashning kuchli vositasi tarzida foydalanish imkoniyatini beradi. Bolalarning aqliy jihatdan o'sishida xotira katga ahamiyatga ega.

Bola tug'ilganda hech narsani bilmaydi va hech narsa qilolmaydi. U rivojlanishning birmuncha yuqoriroq darajasiga ko'tarilib biror bir foydali ish uchun ko'pgina bilim va malakalarini eslab qolishi kerak.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xotirasi ko'pincha beixtiyor tarzda bo'ladi. SHuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishida xayol muhim rol o'ynaydi. Xayol bolaning hayoti jarayonida, uning faoliyatida ta'lim va tarbiya ta'sirida tarkib topadi. Bolaning xayoli u syujetli o'yin o'ynay boshlaganida, kattalar qiziqarli ertaklar aytib berganida, o'sha ertaklarga qiziqish orqali dastlabki alomatlar paydo bo'ladi. Ammo boladagi xayol ko'proq aniq vaziyatga bog'liq bo'ladi (masalan, qo'g'irchoq ko'rinib qolsa, uni uxlatadi, mashina bo'lsa, biror narsani tashiydi va h.k.).

Katta bog'cha yoshiga kelganda, bolaning tajribasi ortib, faoliyati murakkablashadi va buning natijasida bola xayolida sezilarli o'zgarish yuz beradi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash vazifalarini jamiyatimizning ijtimoiy talablariga va insonning aqliy rivojlanish mohiyati va tabiatiga asoslanib ishlab chiqadi. Aqliy tarbiyaning asosiy vazifalari:

2. Aqliy faoliyat, bilish jarayonlari va qobiliyatlarni, aqliy jarayonning xilma-xil usullarini rivojlantirish.

3. Mustaqil bilish qobiliyatlarini, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish.

4. Aqliy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Bilimni tasavvurlar va tushunchalar, qoidalar, qonuniyatlar, sistemalar shaklidagi turli fanlarning mazmuni tashkil etadi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalarda voqea va hodisalarni to'la aks ettiradigan yuksak darajadagi umumlashtirilgan bilimlar tizimini shakllantirishdan iboratdir. Bilim dunyoqarashning asosini tashkil etadi. Demak, bola tevarak-atrofdagi narsalar,

ularning vazifasi sifati va xossalari (sinadi, pachoq bo'ladi, yirtiladi, to'kiladi) haqida, qaysi materialdan tayyorlanganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi. U tabiat hodisalari, ularning o'zaro bog'liqligi va qonuniyatlari (yil fasllarining o'ziga xos belgilari, ular o'rtasidagi bog'lanishlar, hayvonlar, ularning hayoti va yashash tarzining tashkil qilinishiga, xulqiga, yashash sharoitiga mosligi va h.k.) ni bilib oladilar.

Jonsiz tabiat, o'simliklar, hasharot va hayvonlarni kuzatishi jarayonida tarbiyachi bolalarda borliq to'g'risidagi materialistik tasavvurlarni shakllantirib boradi. Bilimlarni egallab borish natijasida bolaning shaxsi ham shakllanib boradi. Bola san'atning har xil turlari to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab oladi.

Pedagogika, psixologiya fani aqliy tarbiya vazifalarini samarali hal etish birinchi navbatda bolaning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni, ikkinchi tomondan bola organizmining charchashiga sabab bo'ladigan ortiqcha zo'rayish bo'lmasligi kerak, degan fikrni ilgari suradi. To'g'ri tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi. Shu sababli pedagoglarning vazifasi muayyan maqsadni ko'zlab, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoitni yaratish bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali so'ng mashg'ulotlar, bilim berish orqali amalga oshiriladi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli kattadir. Bolani bilimlarni egallab olishi, aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy malaka va ko'nikmalarni egallab olishi maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun, bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo'lib, xizmat qiladi.

Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, ya'ni oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

O'simlik va xayvonlar bilan tanishish bo'yicha sistemali mashg'ulotlar olib borilgandan keyin bolalar o'simlik, yosh hayvonlar to'g'risidagi ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladilar. So'ngra bolalardagi aqliy ko'nikma, malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan mashg'ulotlarni o'tkazishni rejalashtirishi mumkin. Bular quyidagilar: «Sen ta'rifla, men topaman».

Didaktik vazifa - Kattalarning savollariga narsaning karakterli belgisini ajratib va nomini aytib javob berish.

O'yin harakati – Kattalarga topishmoqni aytish.

O'yin qoidasi – Ta'riflanayotgan narsaning nomini aytish mumkin emas.

Tarbiyachining savollariga aniq va to'g'ri javob berish.

Jixozlash – Sabzavot va mevalarni stol ustiga qo'yiladi. Tarbiyachi stulini o'simliklar ko'rinmaydigan qilib qo'yiladi.

O'yinning borishi – Tarbiyachi bolalarga stol ustidagi sabzavotlardan bittasini tanlang. Men sizdan uning qandayligini so'rayman. Siz javob berasiz. Faqat uning nomini aytmang. Sizlarning javoblaringizdan men uni topishga harakat qilaman, deydi. Keyin tartib bilan tarbiyachi savol beradi: «Shakli qanday?, hamma tomoni shardek dumaloqmi?, chuqurchasi bormi?, rangi qanday?» va boshqa.

Bolalar savollarga to'la javob berishadi. Bolalar narsaning xarakterli belgilari haqida gapirib berganlaridan keyin tarbiyachi topishmoqni topadi.

### 4.3. Aqliy tarbiya berishda didaktik o'yinlar muhim vosita sifatida.

Mashg'ulotda, o'yinda, tabiat burchagida va maydonchadagi mehnatda, ekskursiya va sayr vaqtida tarbiyachi bolalarga atrof-dagi olamning turlitumanligini, chiroyini ko'rsatadi, o'simlikning turli xususiyatlari, sifatlari bilan tanishtiradi, o'simlik va hayvonot olami haqida elementar tushunchani shakllantiradi. Bolalarning jozibali munosabati tarbiyachining hikoyasidan faolroq o'zlashtirib olishga imkon beradi. Mashg'ulotlarda, didaktik o'yinlarda qo'yilgan vazifani hal etishda bola buyum va xodisalarning ayrim xususiyatlarini ajratishga, solishtirishga, umumiy xususiyatlarga, belgilariga qarab guruxlarga ajratishga, klassifikatsiya etishga o'rganadilar. Bolalar fikr yuritishga, xulosalar chiqarishga o'rganadi, bolalar diqqati, xotirasi va ixtiyoriy idroki rivojlanadi. Mashg'ulotni, o'yin vazifasini hal etishda bola o'zining xatti-xarakatini tushuntiradi. Bu esa nutqining o'sishiga yordam beradi. Mashg'ulotlar, didaktik o'yinlar davomida turli maktabgacha yoshdagi bolalar ko'p marotaba takrorlash orqali Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya dasturiga xos bilimlar majmuini o'zlashtiradilar. Tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan o'yinlarni tanlashda tarbiyachi o'yinning mazmuni atrof muhitdagi, tabiatdagi o'zgarishlarga mosligini unutmazligi lozim.

Masalan: «Urug' sotib olish» o'yini bahorda, «Hosil yig'ishtirish» esa yoz yoki kuzda o'tkazilishi kerak. Tarbiyachining o'zi ham mashg'ulot, o'yinning turlicha variantlarini o'ylashi mumkin: o'yinga, mashg'ulotga qo'shimcha vazifa, yangi rol, bolalarning atrof-olam haqidagi bilimlarini boyitish va boshqalar. Ba'zi bir didaktik o'yinlarni turli variantda, turli yoshdagi bolalar uchun tavsiya etiladi. O'yinlar o'simliklar, hayvonlar yoki boshqa predmetlarning soni oshishi, turlicha qoida va o'yin harakatlarining oshishi hisobiga murakkablashadi. Masalan: paypaslab bilish uchun sabzi, bodring, olma va boshqalar olish mumkin, keyinchalik shakli o'xshash bo'lgan meva va sabzavotlarni kiritish mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga barg, gullar bilan o'ynash ko'pincha gurux xonasini, ovqat stolini bezash, guldasta, barglarni kattalarga, kichik bolalarga sovg'a qilishga xohishlari bilan bog'lanadi. Bunday o'yinlarni, mashg'ulotlarni o'tkazishda bolalarni o'simliklarga nisbatan ehtiyotkorlik, gullarni bekordan-bekorga uzmaslikka o'rgatish lozim.

Agar bola olma yoki boshqa predmetlarning shakliga diqqatini qaratgan bo'lsa, unga olmani dumalatib ko'rish, koptokdek silab ko'rish, uning silliqligini aniqlashni taklif etish lozim. Bolalarda rang, shakl, kattalik tushunchalarini ishlatishga o'rgatish lozim.

Xilma-xil tabiat hodisasi olamida bolalarning bevosita Kuzatishlari uchun eng tushunarligi o'simlik va uy xayvonlaridir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o'simlik va xayvonlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda tabiatga nisbatan muhabbat tarbiyalanadi, xayvonlarni parvarishlashga, o'simliklarni o'stirishga nisbatan istaklari tarbiyalanadi.

Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so'ng mashg'ulotlar, o'yinlar, bilim berish orqali amalga oshirildi. Bola har doim buyumlar, xodisalar orasida bo'ladi. Doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab kuradi, nimagadir quloq soladi, shu tarzda bola dunyoni anglaydi. Tevarak-atrof buyum va narsalar

bolalarining sezgi organlariga, analizatorlarga ta'sir etadi va sezgi hosil bo'ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi. Bolada aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, eng oddiy faoliyat usullari predmetlarini tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli nimadan iborat?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
3. Qanday mashg'ulotlar aqliy tarbiyada sanarali hisoblanadi?
4. Bolalarni rang, shakl, kattalik tushunchalarini anglashga qanday o'rgatiladi?



### **5-§. BOLANING MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLIGI TAHLILI**

**Tayanch tushunchalar:** *ijtimoiylashuv, psixologik tayyorgarlik, hulq atvorning og'ishuvi, psixika, qiziqish, extiyoj.*

#### **5.1. Bolani jismoniy va aqliy jihatdan maktab ta'limiga tayyorlash.**

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda, ota-onalarning mustakil ta'lim berishi orkali yoki doimiy faoliyat kursatadigan maktabgacha ta'lim muassasalarida, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb kilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalarda, maktablarda, maxallalarda tashkil etilgan maxsus guruxlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular xaftada 2-3 marta shug'ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta'lim shaklini tanlash xukuki beriladi.

6-7 yoshli bolaning maktab ta'limiga tayyorligini aniklashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart xisoblanmish – bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi xayot tarzi xamda faoliyati uchun kuprik vazifasini utashini, oila yoki maktabgacha ta'lim muassasadagi ta'lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta'limiga ozorsiz o'tkazishni ta'minlash zarurligini xisobga olishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga utishi xamisha uning xayoti, axloki, kixikishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chikaradi. Shuning uchun bolani yoki uydayok maktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha kiyin bulmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak buladi.

Yetakchi mutaxassislarning fikriga kura «Maktabga tayyorgarlik» tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning kuyidagi yunalishlarini o'z ichiga oladi:

- jismoniy,
- shaxsiy (ruxiy),
- akliy
- maxsus tayyorgarlik.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, xarakter ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va ko'rish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izoxlanadi. Shaxsiy tayyorligi, atrof-muxitga, kattalarga, tengdoshlariga, usimliklar dunyosiga, tabiiy xodisalarga, shaxsiy madaniyatni shakllanganligini nazarda tutadi. Akliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvotning, odamiylikning, bilimga kizikishning, mustakilligining, o'zini-o'zi nazorat kilishga, xamda o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab kolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o'z ichiga oladi.

Bolaning maktabda ta'lim olishi samarasi uning ona tilini bilishiga va nutkni kanchalik rivojlanganligiga kuprok bog'liq buladi. Chunki butun o'quv faoliyati shularga, ya'ni nutkiy mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustakil fikrlashi, til rivojlanganligi yutuklarida erkin foydalana olishi, xikoya kilish, muloxaza yuritish, o'z tasavvurini izoxlay olish, tushunarli kilib bayon etish kabi omillar asosiga kuriladi. Shuningdek, bolaning maktabda ta'lim olishi uchun amaliy intellekt rivoji ya'ni, uning namunani chizish, aytib turiladigan bayoniy topshirikni bajarishi xam muxim sanaladi. Va nixoyat, maxsus tayyorgarlik bolani savodxonlikka urgatish va uning maktabning I sinf o'quv dastur materialini yetarli darajada egallash xakidagi tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bolalarni maktabda o'qitishning samaradorligini ko'p jixatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog'liq buladi. Maktabda o'qishga tayyorgarlik – maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga qo'yadigan talablar orkali aniklanadi. Bu talabalarning o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi sotsial psixologik o'rni, u bajarishga tayyorlangan bulishi lozim. Yangi vazifa va burchlardan kelib chikadi.

Maktabga kirish bola xayotidagi odatiy turmush tarzi, atrofdagilar bilan munosabat sistemasining o'zgarishiga alokador muxim davrdir. Bola xayotida birinchi bor markaziy urinni ijtimoiy axamiyatga ega bo'lgan o'quv faoliyati egallaydi. Unga odatiy bo'lgan erkin uyin faoliyatidan farkli ularok, endi ta'lim majburiy buladi va birinchi sinf o'quvchisidan 4 ta jiddiy munosabat talab kilinadi Ta'lim faoliyatining yetakchi turi sifatida bolaning kundalik xayot jarayonini kayta kuradi: kun tartibi o'zgaradi, erkin uyinlar vakti kiskaradi. Bolaning mustakilligi va uyushganligi, uning ishchanligi va intizomlilikka talablar jiddiy ravishda ortadi. Maktabgacha yoshdagi bolalikka nisbatan o'quvchining o'z xatti-xarakati, majburiyatlarini bajarishga shaxsiy ma'suliyati ancha-muncha ortadi.

Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan bolalar bogchasida tarbiyaviy ishni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni umumiy, xar tomonlama rivojlantirishning yukori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan bolalarni maktabning boshlangich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan kilib tashkil etilishini nazarda tutadi. Shunga kura

zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotda (A.V.Zaparojes, A.A.Venger, G.M.Lyamina, G.G.Petrogenko, J.V.Taruntaeva va boshkalar) tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsining rivojlantirish sifatida aniklanadi va ikkita o'zaro boglangan jixatlarda: «Maktabga o'qishga umumiy psixologik tayyorgarlik» va «Maxsus tayyorgarlik» tarzida kurib chikiladi.

Maktabga umumiy tayyorgarlik MTMsining maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni xar tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maksadga muvofiq ta'lim-tarbiyaviy ishning muxim yakuni sifatida namoyon buladi.

Maktabga umumiy tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaktiga kelib akliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivolanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharaoitlariga va o'quv materialining ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi.

Umumiy tayyorgarlik bola maktab ta'limiga utish davriga kelib erishadigan psixik rivojlanishning muayan darajasi bilan ifodalanadi.

Psixologik tayyorgarlik tushunchasi maktab ta'limi nuktai-nazaridan I sinfga borayotgan bola psixik rivojlanishidagi muxim sifat kursatkichlarini muvoffakiyatli jamlaydi.

Maktab ta'limiga *psixologik* tayyorgarlik bolaning o'qishga intilishi o'quvchi bulish ishtiyokida bilish faoliyati va tafakkur operatsiyalarining yetarlicha yukori darajasi bolaning o'quv faoliyati elementlarini egallashi iroda va ijtimoiy rivojlanishning muayan darajasida namoyon bulishda asoslangan tayyorlikni o'z ichiga oladi. Bolani maktabga psixologik tayyorgarligining barcha komponentlari bolani sinf jamoasiga olib kirish maktabda o'quv materialini ongni faol egallash keng doiradagi maktabga oid majburiyatlarni bajarishni kamrab oladi.

Bolani maktabga maxsus ravishda tayyorligi maktabda o'qishga umumiy psixologik tayyorligiga kushimchadir u bolada matematika va ona tili kabi o'quv fanlarini urganish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga kura aniklanadi. Maktabgacha ta'lim muassasada bolalarda eng oddiy matematika tasavvurlarini tarkib toptirish, nutkni ustirish xamda savodni egallashga tayyorlanish yuzasidan o'tkaziladigan jadal ish bolalarni maktabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi.

Maktabga katnaydigan bola yangi tumush tarziga kishilar bilan o'zaro munosabatning yangi sistemasiga, faol akliy faoliyatga tayyorlangan bulishi darkor. U yangi jiddiy majburiyatlarni uddalashi uchun jismoniy rivojlanishda muayan darajaga erishgan bulishi kerak.

Bolaning maktabda (o'qishga axlokliy-irodaviy tayyorgarlik) umumiy tayyorligi mazmunida bir necha o'zaro boglangan jixatlar mavjud bo'lib, ulardan muximlari ma'naviy, irodaviy, akliy, jismoniy tayyorgarlikdir.

Maktabning bola shaxsiga qo'yadigan asosiy talablaridan biri psixologik tayyorgarlikdir. Bolaning psixologik tayyorligi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavkeini o'zgarishi va kichik maktab yosh davridagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xosligi bilan o'zviy bog'liq.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, maktabga psixologik tayyorgarlik doimiy xisoblanmaydi, balki u doimo o'zgarib boyib boradi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy

jixatlari: intellektual (akliy), ma'naviy va irodaviy tayyorgarlikdan iboratdir.

Aksariyat xollarda bolaning akliy rivojlanganlik darajasi xakida gapirilganda uning so'z boyligi zaxirasi bilan aniklanadigan akliy bilimlari mikdoriga ko'prok e'tibor beriladi. Ota-ona, xatto ayrim o'qituvchilar xam bola kanchalik ko'p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo'ladi, deb o'ylaydilar. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarkalganligi tufayli bugungi kun bolalari go'yo ma'lumotlar ummonida so'zib yurgandek bulmokdalar. Bu esa ulardagi so'z boyliklarning keskin usishiga asos bulmokda, lekin bu ularning tafakkuri xam shunday jadallikda rivojlanayapti, degan gap emas.

Maktabda amal kilinayotgan o'quv dasturlarini o'zlashtirish boladan narsalarni takkoslay bilish, taxlil kilish, umumlashtirish, mustakil xulosalar chikarish kabi bilish jarayonlarining yetarlicha rivojlangan bulishini takozo etadi. Shuning uchun xam xozirgi kunda maktab amaliyotchi psixologlari tomonidan bolalarni birinchi sinfga kabul kilish jarayonida keng foydalanilayotgan psixodiagnostik vositalar, testlar, surovnomalar, asosan bolada yukorida keltirib utilgan xususiyatning rivojlanganlik darajasini aniklashga muljallangan metodikalardan iboratdir.

5-7 yosh bolaning maktabga intellektual (akliy) tayyorligining yana muxim kursatkichlaridan biri bu ulardagi obrazli tafakko'rning oliy darajada rivojlanganligidir. Bularga tayangan xolda bola atrof-muxitdagi narsa-xodisalar urtasidagi eng muxim xususiyatlarni, munosabatlarni farklay olish imkoniyatiga ega buladi. Bu urinda bolalar chizmalı tasvirlarni shunchaki tushunibgina kolmay, balki ulardan muvaffakiyatli foydalana oladigan buladilar.

Birok ularning tafakkuri umumlashtirish xislatlariga ega bula borsada, predmetlar va ularning (tafakkuri) o'rmini bosuvchilar bilan anik xatti-xarakati obrazlilikiga kolaveradi.

Maktabgacha yosh davridayok bola kichik maktab yosh davrida yetakchi faoliyat turi buladigan – o'quv faoliyatiga tayyorlangan bulishi lozim. Bunda bolada ma'lum bir tegishli masalalarning shakllangan bulishi muxim axamiyatga ega. Bunday malakalarning asosiy xususiyatlaridan biri bolaning o'quv topshirigini ajratib olishi va faoliyatni mustakil maksadga aylantira olishidir. Bunday jarayonlar birinchi sinf o'quvchilaridan topshirikda o'zi belgilagan o'zgarish, yangilik alomatlarini kidirib topa bilish va ulardan xayratlanishni, kizikishni talab kiladi. Bunday topshiriklar amaliy ishlarga aylantirilsa yoki uyin tarzida bajarilsa, osonrok kechadi va bola o'zlashtiradi.

Yukorida tuxtalib utganimiz intellektual tayyorlik bolaning maktabda muvafakkiiyatli o'qib ketishi uchun yagona zamin emas.

Agar bola zarur malaka va ko'nikmalar zaxirasiga ega bulsa, unda intellektual rivojlanganlik darajasi xam yukori bulsa-yu o'quvchilikning ijtimoiy xolatiga shaxsan tayyor bulmasa, maktabda o'qib ketishi kiyin kechadi. Agar ukituvchi yoki ota-ona uni o'qishga kiziktira olmasalar, o'quv vazifalarini zurma-zuraki, sifatsiz, qo'l uchida bajaradilar. Bundaylarda zarur natijalarga erishish kiyin buladi.

Eng yomoni, bu yoshda maktabga borishni xoxlamaydigan bolalar xam uchrab turadi. 5-7 yoshli bolaning maktabga borishdan bosh tortishi asosan uni tarbiyalashda ota-onalar tomonidan yul kuyilgan xatoning okibati xisoblanadi. Ayrim ota-onalarda

maktabgacha yosh davridagi bolani maktab bilan kurkitish xollari xam ko'zatiladi.

- ✓ *Ikkita gapni eplab gapira olmasang, maktabda kanday ukiysan?*
- ✓ *Sanashni bilmaysan-u, maktabga kanday borasan?*
- ✓ *Maktabga borsang, urtoklaring bu kiligingdan qo'lishadi!*
- ✓ *Xech narsani bilmaysan, maktabga borsang bizni uyaltirasan!*

Kabi ta'na-dashnomlar, bolada maktabdan kurkish, undan xavfsirashning shakllanishiga asos bulishi mumkin. Shunday kurkuv bilan maktabga borgan bolalarning maktabga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ularda o'ziga nisbatan ishonch uygotish uchun xaddan ziyod kuch, vakt, mexnat, sabr-tokat, chidam, e'tibor zarur buladi. Bu esa bolada oldindan maktabga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga karaganda shubxasiz, murakkab jarayondir.

Bolani birinchi sinfdan o'qitishda yuzaga keladigan kiyinchiliklarning sababi kattalarning bola bilan buladigan mulokotlari shakli u yoki bu vaziyatga bog'liq bulmagan xolda, shaxsiy axamiyatga ega bulishi muxim axamiyatga ega. Bunday mulokot bolaning kattalar e'tiboriga va xamdardligiga bo'lgan extiyoj va extiyojlarni kattalar tomonidan kondirilishi bilan xarakterlanadi. Mulokotning bu shakliga erishgan bolalar uchun kattalarga e'tibor, ular murojatini tinglash va tushunishga intilish va kattalar tomonidan xam ularga nisbatan shunday e'tibor kursatilishiga bo'lgan ishonch xosdir. Bunday bolalar kattalarning turli vaziyatlarda (kuchada, uyda, mexmonda, ishxonada) o'zlarini kanday tutishlarini farklay oladilar. Kattalarning bunday xulkn anglash evaziga bolalar xam kattalarga, ukituvchilarga, shu vaziyatga mos ravishda munosabatlarni namoyon kiladi. Agar bolada kattalarga nisbatan bunday munosabatlar shakllanmagan balsa, unga mos ravishda kattalarga nisbatan xam tegishli munosabat yuzaga kelmaydi, bu esa albatta bola bilan olib boriladigan ta'lim jarayonini murakkablashtiradi.

Ota-onalar xar bir bola ruxiy rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashida namoyon bulishini yodda tutishlari lozim. Ba'zi bolalar endigina birinchi so'zlarni o'zlashtirganlarida ularning tengkurlari allakachon ma'lum bir iboralar bilan gaplasha oladigan buladilar.

Ta'lim jarayonida bola imkoniyatlarining namoyon bulishi ma'lum darajada nasliy omillar bilan xam bog'liq dir. Bolalar o'z temperament xususiyatlariga kura xam bir-birlaridan ajralib turadilar:

✓ Xushchakchak, sergap, kuvnok, xayotning o'zgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan bolalar – sangvinnik temperamentga mansub buladilar.

✓ Kupincha noxush kayfiyatda yuradigan, ta'sirchan, kamgap, sust bolalar – melanxolik temperamentga kiradilar.

✓ Xotirjam, befark, kamxarakat, nutki sust bolalar – flegmatiklardir.

✓ Jaxldor, betokat, serzarda, xarakatchan bolalar – xolerik xisoblanadilar.

Bolalar kattalarning yordamiga muxtoj bulishiga karab xam bir-birlaridan fark kiladilar. Ba'zi bolalar biror xatti-xarakatni bajarishni bir necha marta kursatish, tushuntirish, ketidan ergashtirish kerak. Boshka bolalarga esa bajariladigan ish bir marotaba kursatilsa yetarli buladi. Shunday bolalar xam borki, ular berilgan vazifani mustakil bajaradilar. Bolalar o'zlarini kizikuvchanlik, akliy faolliklariga karab xam

bir-birlaridan ajralib turadilar. Ba'zi bolalar kup savol beradilar va xarakatchan buladilar, ba'zi bolalarni esa xech narsa kiziktirmaydi. Ota-onalar bolalaridagi o'ziga xosliklarni kanchalik chukur bilsalar, ularga urgatishni muvaffakiyatli tashkil kila oladilar.

Bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi keng va mukammal bo'lib rivojlangan bulishi darkor. Bolalarga kanchalik yaxshi bilim bersak, uylaymanki ular kelajakda Vatanga sadokat ruxida, yetuk inson bo'lib yetishadilar. Demak, tarbiyachi bola shaxsida axlokiy xis-tuygularni tarbiyalash uchun xamma vosita va metodlarni qo'llasa, yaxshi xulk namunalarini o'rgatish ancha oson kechadi.

## **5.2. Bolalarning maktab ta'limiga tayyorlashda ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi**

Bolaning psixik jihatdan o'sishda bog'cha yoshidagi davr ancha murakkab va juda mas'uliyatli davrdir.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri hisoblanadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshida bola mustaqil bo'la olish uchun zarur bo'lgan ikkita qudratli kuchga ega . Birinchidan, ma'lum darajada o'ziga bo'ysundirilgan harakat apparatiga ega. Ikkinchidan esa , atrofidagi katta odamlar va o'z tengdoshlari bilan bir qadar erkin muosabatda bo'la oladigan nutqqa ega . Mana shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalarning xulq – atvorlari, qiziqishlar va ehtiyojlari bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarnikidan farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, bog'cha yoshidagi bolalar bilan bog'chaga tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasiga ham turlicha munosabatda bo'lishni taqozo etadi.

Agar yangi tug'ilgan hamda bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya asosan ularni ovkatlanishi gigienalarini tartibga solish va sezgi organlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa bog'cha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini takomillashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalari hosil qilish, nutqlarini o'stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirishga qaratilgandir. Demak, asosan bog'cha yoshidan boshlab bolaning bundan keyingi butun shaxsiy hayoti davomida tarkib topa boradigan individual hususiyatlari ham yuzaga kela boshlaydi. Ana shu sababli ham insonning xar tomonlama kamol topa borishi va xususan , psixik jihatdan bog'cha yoshidagi davrida olgan ta'lim tarbiyasiga bog'liqdir. Bu haqida N.K.Krupskaya shunday deb yozgan edi: «yosh bolalik chog'laridan qolgan taasurotlari juda katta ahamiyatga ega».

Mashhur rus pedagoglaridan Lestgafning fikricha, insonning boshqa yoshdagi davri shunday bir davrki, bu davrda unda kelgusida qanday karakter hislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy karakterning asoslari yuzaga keladi. Insonning kamol topa borishda bog'cha yoshidagi davrning ahamiyatiga doir Lestgafning bu fikri buyuk rus pedagogi A.S.Makarenkoning quyidagi fikriga to'la mos keladi. A.S.Makarenko bolalarni juda kichiklik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning 5 yoshgacha bo'lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan ish butun tarbiya proessining 90 % ni tashkil etadi , degan edi.

Haqiqatdan ham bolaning bog'cha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va aktiv davrdiki, bu davr bolaning kelgusi o'sishida albatta o'z aksini qoldiradi. Lekin bundan bolaning bog'cha yoshidagi davri, uning qanday odam bo'lib chiqishni batamom belgilab beradi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Mana shuning uchun bola shaxsining shakllanishi faqat bog'cha yoshidagi davr bilangina bog'lab bo'lmaydi. Umuman inson o'z tabiati jihatidan deyarli butun umri davomida tarbiyalanuvchi mavjudoddir. Lekin har bir odam harakteriga xos bo'lgan shaxsiy xislatlarning yuzaga kelishida uning har bir yosh bosqichida olgan ta'lim tarbiyasini aksi sezilib turadi.

Bog'cha yoshidagi davr o'z ta'sir kuchi jihatidan g'oyat ma'suliyatlidir

Bola yasli davrini o'tib, bog'chaga kelgach, uning yashash sharoitida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, bola bog'cha yoshiga o'tgach, uning faoliyat doirasi ancha boshqacha mazmunga ega bo'la boshlaydi.

Ikkinchidan, bola bog'chaga o'tgach, muayyan asosida mahsus pedagog tomonidan tarbiyalana boshlaydi.

Bolaning yashash sharoitida yuzaga kelgan bu o'zgarishlar uning psixik jihatdan o'sishiga ta'sir etmay qolmaydi. Mana shuning uchun bola bog'cha yoshidagi davrida faqat jismoniy jihatdangina o'smay, balki psixik jihatdan ham taraqqiyotning yana bir yuqori pog'onasiga ko'tariladi. Bog'cha yoshidagi bolaning har bir xatti – harakatidan uning mustaqilligi, nutqning elementar bo'lsa ham, gramatik jihatdan to'g'ri shaklini amaliy o'zlashtira boshlaganligi ko'rinib turadi. Bog'cha yoshidagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi hususiyatlaridan yana biri ularning taqlidchanlik va serharakatliklaridir.

Bog'cha yoshidagi davrida bolalarning naqadar serharakat bo'lishlari barcha ota – onalarga tarbiyachilarga ma'lum bu yoshdagi bola butun kun davomida xilma – xil va tinimsiz harakat qilish orqali atrofdagi muhit va odamlar bilan munosabatda bo'ladi. Binobarin, shunday xilma – xil harakatlar tufayli o'z tasavvuri hamda bilim doirasini kengaytirib boradi.

Bolalar psixologiyasida keng qo'llaniladigan yana bir asosiy metod – eksperiment metodidir. Eksperiment metodi kuzatish metodiga nisbatan aktiv metod xisoblanadi. Eksperiment metodida u yoki bu psixik protsessni kachon yuzaga kelishini kutib o'tirmay, bu protsessni eksperimentatorming o'zi yuzaga keltiradi. Shuningdek o'rganilayotgan psixik protsessni bolalarda bir necha marta takrorlab o'rganish mumkin, yana kulay tomoni shundaki, bu metod kuzatish metodi singani ko'p vaqt talab qilmaydi. Eksperiment metodi 3 ga bo'linadi: 1) laboratoriya eksperimenti, 2) tabiiy eksperiment. 3) pedagogik- psixologik eksprement metodi. Laboratoriya eksperimenti maxsus tashkil kilingan laboratoriyalarda turli asboblardan yordami bilan o'tiladi. Tabiiy eksperimentda biror psixik protsess o'rganilayotganda maxsus sharoit yuzaga keltiriladi. Bolalar psixologiyasida eksperimentning har ikkala turidan keng foydalaniladi. Biroq bu metodlardan bolalar psixiologiyasida foydalanishning o'ziga xos tomoni shundaki, bog'cha yoshidagi bolalar laboratoriya sharoitida o'tkaziladigan eksperimentlar bilan tabiiy sharoitda o'tkaziladigan eksperimentlarning farqiga bormaydilar.

Har ikkala holda ham, tajribalar vazifa tarzida emas, balki o'yin tarzida o'tkazilsa yaxshi natija beradi. Eksperiment metodidan guruhlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlar

paytida keng foydalanish mumkin. Masalan: turli yoshdagi bog'cha bolalar bilan o'tkaziladigan didaktik mashg'ulotlarda tabiiy eksperiment metodini qo'llash mumkin. Bunda bolalarga xar xil hayvonlar, parrandalar, mevalar, sabzavotlar tasvirlangan rasmlı kartochkalarnı aralash xolda berib, ularni guruhlarga ajratish topshiriladi. Bolalar bu narsalarnı qanday belgilariga qarab guruhlarga ajratishlarida ularning umumlashtirish xususiyatlarini o'rganish mumkin. Odatda, guruh sharoitida o'tkaziladigan bunday eksperimentni tabiiy eksperiment deb yuritiladi. Bolalar psixologiyasida tarkib toptiruvchi eksperiment metodidan ham foydalaniladi.

Bunda bolalarning u yoki bu xususiyati (psixologik xususiyati) tarkib toptiriladi va mustahkamlanadi. Masalan: bog'cha yoshidagi bolalar ayni bir vaqtning o'zida butunni va uning tarkibiy qismlarini to'la idrok qila olmaydilar. Ular o'z diqqatlarini yoki bir butun narsaning o'ziga yoki uning bo'laklariga qarata olmaydilar.

Tarkib toptiruvchi eksperiment orqali bolalarnı bir butun narsani uning qismlari bilan bir paytda idrok qilishga o'rgatiladi. Buning uchun bolalarga bir butun narsaning obrazini yarata olish mashq qildiriladi. (turli geometrik figuralar – doira, kvadrat, kub, foydalaniladi)

Pedagogik eksperiment orqali biron ta'lim – tarbiya metodining effektivligi aniqlanadi. Masalan: Biron tadqiqotchi bolalarnı son – sanoqqa o'rgatishning kandaydir yangicha metodini ishlab chiqqan bo'lsa, uni pedagogik eksperiment metodi orqali sinab ko'radi. Buning uchun oldindan bog'cha ma'muriyati bilan kelishib 1 ta eksperimental va 1 ta nazorat guruhini belgilab oladi. Shundan so'ng tadkikotchi eksperimental guruhda yangicha metod bilan elementar mavhum tasavvurlarnı o'stirish mashg'ulotini o'tkazadi. Nazorat guruhida esa bu mashg'ulotlar odatdagi eskicha metod bilan davom ettirilaveradi. 1-2 oydan so'ng har ikkala guruhdagi bolalarning o'zlashtirishlari taqqsolab ko'riladi. Agarda eksperimental guruh bolalar yangicha metod bilan o'zlashtirishlari nazorat guruhdagi bolalarning o'zlashtirishlaridan anchagina samarali bo'lib chiqsa, bu metod boshqa hamma bog'chalarga ham tarqatiladi. Bordi-yu, agar natija nazorat guruhdagi bolalarning o'zlashtirishlaridan yomon, ya'ni past bo'lib chiqsa, yangicha metod bilan mashg'ulot o'tish darhol to'xtatiladi.

Bolalar psixologida asosiy metodlardan tashqari yordamchi metodlardan ham keng foydalaniladi. Bolalar psixiologiyaning yordamchi metodlaridan – faoliyat mahsulotlarini o'rganish metodidir. Bolalar ham xuddi katta odamlar singari doim ma'lum faoliyat bilan mashg'ul bo'ladilar. Faoliyatlari jarayonida turli narsalarnı, mahsulotlarnı yuzaga keltiradilar. Ana shu narsalarda, mahsulotlarda bolalarning psixik protsesslari va psixologik xususiyatlari o'z aksini topadi. Bog'cha yoshidagi bolalarning faoliyatlari – o'yin, rasm chizish, plastilin yoki loydan biron narsa yasash, applikasiya, qurish –yasash kabilardan iboratdir. Ana shu faoliyatlarining natijasiga qarab bolalarning mayl va istaklari, ehtiyoj va qiziqishlari, qobiliyat va layoqatlarini o'rganish mumkin. Masalan: bolalarning chizgan rasmlarida ular idrokining xususiyatlari va atrofdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurlarini ko'rish mumkin. Shu sababli bu metoddan bolalar psixologiyasida keng foydalaniladi.

Bolalar psixologiyasi so'rash – suhbat metodidan keng foydalaniladi. Bu metodni 5-6 yoshli bolalarga nisbatan qo'llash mumkin. Bunda bolalarga turli mavzularga doir

savollar beriladi va ulardan og'zaki suhbatning mavzui va suhbat paytida bolalarga beriladigan savollar oldindan yaxshilab uylab olinadi. Suhbat jarayonida javoblarni yozib olib, keyinchalik javoblarni taxlil qilish mumkin. Suhbat metodini o'tkazishda quyidagilarga rioya qilish talab etiladi:

- Suhbatning mavzusi va mazmuni bolalarning taraqqiyot darajalariga va yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.
- Savollar rejali va maksad asosida tuzilishi kerak.
- Suhbat paytida «ha» yoki «yo'q» demay, tuliq javob olish kerak.
- Suhbatni haddan tashqari cho'zib yubormaslik kerak.
- Suhbat orqali bolalarning bilishlari, narsa va hodisalar haqida tasavvurlari, qiziqishlari va odamlar bilan bo'lgan munosabatlarni o'rganish mumkin.

Bolalar psixologiyasida so'nggi yillarda test metodi qo'llanila boshlandi. Test so'zi inglizcha bo'lib, o'lchash degan ma'noni bildiradi. Test metodi orqali bolalarning umumiy aqliy taraqqiyot darajalari va ayrim psixik protsesslarining (tafakkur, xayol, xotira) qanchalik rivojlanganlik darajasi aniqlab taqqoslanadi. Test metodi yordami bilan bolalarning o'z yoshlariga nisbatan normal taraqqiy etganliklari yoki orqada qolganliklarini ham aniqlash mumkin. Qo'llaniladigan testlar orasida intellektual testlar deb (ataladigan) testlar katta ahamiyatga ega. Intellektual testlar – bolalarning umumiy aqliy taraqqiyot darajalari aniqlanadi.

Test vazifalari bolalarning o'yin faoliyatlari bilan bog'lansa, bolalar bunday vazifalarni bajonu dil bajaradilar. Masalan: biron butun narsaning mayda bo'laklarga ajratib tashlangan qismlarini birlashtirish, mayda bo'lakchalardan murakkab va chiroyli animatsiyalar yasay olish, turli labirintli suratlardan tug'ri yulni topa bilish vazifalaridan foydalanish mumkin.

Masalan: test metodida bolalarga topshiriladigan vazifalar bir necha variantda bo'lib, ular kuchlari yetgan variantlardagi vazifalarni bajaradilar. Xar bir bajarilgan vazifaga ball sismasida baho quyib boriladi. Vazifalardan qanchasini bajarganligi va tuplagan baliga qarab, bolalarning o'rtacha taraqqiyot darajasi belgilanadi, aniqlanadi.

Bolalar psixologiyasida so'nggi yillarda sotsiometriya metoddan foydalanila boshlandi. Sotsiometriya metod yordamida shaxslarning kollektivdagi munosabatlari masalasi o'rganiladi. Bolalar psixologiyasida esa sotsiometriya metod yordami bilan xar bir guruhda bolalarning o'z tengqurlari urtasida yuzaga kelayotgan o'zaro munosabatlari va ularning guruhda tutgan mavqeilari o'rganiladi.

Bolalar psixologiyasida tadqiqot metodlari bilan tanishish tarbiyachilar va pedagoglar uchun amaliy ahamiyatga egadir. Bu metodlardan ta'lim – tarbiya ishlarida bolalarning psixik protsesslarini taraqqiyotini bilib olish uchun, shuningdek bolalar bilan individual munosabatda bo'lishda, ularning individual – psixologik xususiyatlarini bilib olishda keng foydalaniladi. «Agar pedagogika odamni xar jixatdan tarbiyalamokchi bo'lsa, u oldin usha odamni xar jixatdan bilib olishi kerak» - deb yozgan edi. K.D.Ushinskiy. Shuning uchun ta'lim – tarbiyaviy ishlarni tug'ri tashkil qilish uchun bu metodlar bilan tanish bo'lish lozim.

### **5.3. Bola maktabda o'qishiga ijtimoiy tayyorgarligi**

Uqish uchun bolalar anchagina jismoniy va aqliy kuch sarflashlari kerak. Shuning uchun ota-ona bola maktabga borguniga kadar uning tugri jismoniy rivojlanishi va

soglom bulib usishi gamxurlik kilishi juda muximdir. Bola xayotining rejimi. Odatda, soglom bola kasalmand va zaif bolaga nisbatan maktab rejimiga va butun dars davomida uzida jush urib turgan gayratlarini tiyib jim utirishga tezrok kunikadi. Soglom kilib ustirish esa sizning kulingizdadir. Xar bir bola anik kun tartibiga ongli ravishda rioya kilishiga boglik. Bolani maktab rejimiga tayyorlashda, uning sog`ligini mustaxkamlashda ertalab ma`lum vaqtda unindan turish, ovqatlanish va uyquga yotishga aniq rioya qilinishi kerak. Xar bir oila mehnat faoliyatining xarakteri, maishiy sharoiti, bolalarning soni va shu kabilarga uz yashash tartibini urnatadi. Birok siz bir narsani, ya`ni maktabgacha yoshdagi bolaning nonushtasi va tushligi urtasidagi oralik 4 soatdan oshmasligini, tushlik va kechki ovkat urtasidagi oralik – bir oz kattarok (67 soat), buning orasida yengil ovqatlanish kechki choy bulishi kerakligini unutmashligingiz kerak.

Bolaning bir sutkadagi uyquasi taxminan 11 soatni tashkil kilishi kerak. Bola tushlikdan sung 1-1,5 soat dam olishga odatlansin. Kechqurun u doimo bir vaqtda, ya`ni 9 dan kechikmay uxlagani yetsin. Bola mirikib uxlasin desangiz, kuyidagi koidalarga rioya kiling:

- bola uxlaydigan xonani yaxshilab shamollating;
- bolani uxlashga yotishdan oldin tishini tozalashga, yuz-qo`li, buyni, oyog`ini yuvishga odatlantiring;
- bolaga urinda nonushta aslo yul qo`ymang;

Bolaning normal rivojlanishi uchun u toza xavoda kup xarakat kilishi kerak. Tengdoshlari bilan chopsin, sakrasin, narsalarga tirmashib chiksin. Bola ochik xavoda kish oylarida 4 soatdan kam bo`lmasin, yozda esa deyarli butun kunini ochik xavoda utkazsin. Bolaga uzzu kun tinim bilmay lakillab yurishga yul kuyib bulmaydi, bunday ortiqcha uynokilikdan bola maktabning talabchan intizomiga kunikishi kiyin buladi. Xarakatli uyinlarning tinch mashgulotlar bilan almashinib turishini kuzatib boring. Bolaning kundalik rejimga amal kilishi uchun asosan, qat`iy nazorat lozim. Bola kundalik rejimni bajarish majburiyiligiga va xech kanday gap, iltimoslar, ma`lum vaktida ovqatlanmaslik xamda uynamaslikka sabab bula olmasligiga kunikishi kerak. Shu bilan birga siz rejimning zarurligi va uning foydasini doimo tushuntirib borishingiz kerak:

Ertalabki badantarbiya mashklarini yaxshi bajarding, endi kun buyi tetik yurasan: Barakalla, gullarni tozalab yaxshi kilibsan.

Menga ancha yordaming tegdi;

O`z vaqtida ovqatlangang tez usasan xamda, kasalga chalinmaysan va shu kabilar.

Ba`zan kundalik rejimning bir oz buzilish xollari xam buladi. Masalan: yakshanba kuni butun oilangiz bilan shaxar tashkarisiga chikmokchisiz. Bu uyku rejimining buzilishiga olib keladi. Bunga yul quysangiz buladi, biroq belgilangan vaqtda (agar uyquni tashkil kilib bulmasa) bolaning ochik xavoda dam olishini ta`minlashingiz kerak.

Rejimning qimmati bola faoliyatining xar xil turlarining almashinib turishini ta`minlashdir, bu esa yosh, usuvchi organizmni charchashdan saklaydi, bolaning xar tomonlama kamol topishiga imkon beradi. Masalan, qizingiz rasm solishga qizikib ketib, stoldan 40 minut davomida turmadi, lekin u aktiv harakat qilishi, ya`ni uynashi,

chopishi kerak. Shuning uchun u uynab bulganidan keyingina unga tinch uyin yoki mashgulotni tavsiya qilish mumkin. Agarda ish shu yusinda ketsa, bola shunday tartibga rioya qilsa, u qay darajada bulmasin asta-sekin uz faoliyatini boshkarishga odatlanadi, bu uni kundalik va maktab rejimining asosiy moddalariga osongina kunikishida katta axamiyatga egadir.

#### **5.4. Bolaning maktabda o'kishiga jismoniy tayyorligi.**

Bolani maktabda o'kishga jismoniy tayyorligi o'kishning muvaffakiyatli bo'lishida katta ahamiyatga egadir. Maktabga chikish munosabati bilan bola turmush tarzining kayta kurulishi, kun tartibining o'zgarishi, jiddiy o'kuv mehnati, darslarning davomiyligi undan sezilarli jismoniy zo'r berishni talab kiladi. Maktabga jismoniy tayyorlik ko'pgina tarkibiy kislardan tarkib topadi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar salomatligining yahshi bulishi;
2. Organizimning chinikkanligi, ma'lum darajada chidamiligi va ish kobiliyati, kasalliklarga karshilik kursata olishi;
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mayda ko'l motorikasining rivojlanganligi;
4. Madaniy gigienik malakalami egallanishini, ularda shahsiy gigiena qoidalariga rioya kilish odatini tarbiyalashni nazarda tutadi.
5. Jismoniy tayyorlik bola maktabaga tayyorgarligining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi.

Maktabga yetuklikni aniqlashda bola sog'ligining holati va organizimning biologik yetukligini baholash (antropometrik ko'rsatkichlar suyak, mushak, nafas olish va yurak-tomir tizimining) rivojlanganligini nazarda tutuvchi ko'p omilli tahlildan, maktabga funksional tayyorlikni «Maktabga yetuklik»ni asosiy ko'rsatkichi va eng avvalo bir kator fiziologik funksiyalarining rivojlanish darajasini baholashdan foydalaniladi. Bularga: partada anchagina o'zok muddat o'tirish uchun zarur bo'ladigan tormizlanish kobiliyatining rivojlanganligi; harakatlarni yahshi boshkarish, jumladan yozish va rasm solishga alokador grafik vazifalarni bajarishda zarur bo'ladigan barmoklarning mayda harakatlari; ijobiy va tormozlanishiga hos shartli alokalarni nisbatan tez hosil kilish hamda mustahkamlash, shuningdek ikkinchi signal sistemaning yetarlicha rivojlanganligiga ta'liklidir.

Kun tartibi, chiniktiruvchi muolajalar, muntazam jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, hilma-hil harakatli uyinlar va jismoniy mashklar faol harakat rejimi bolalarni maktabda o'kishiga jismoniy tayyorligini ta'minlashning zaruriy shartlari hisoblanadi.

#### ***Jismoniy rivojlanganlik darajasi:***

- ✓ Mustakil tarzda jismoniy mashklarni bajara olish;
- ✓ Buyrukka (start, stop) asosanib yugura olish;
- ✓ Narvo'n yordamida tepalikka chika olish va pastga tusha olish;
- ✓ Narvon ustida o'tirib oldinga siljiy olish;
- ✓ 5 sekund davomida arkonda osilib turish;
- ✓ Arg'imchok ucha olish;
- ✓ Cheklangan saf va chizik bylab yura olish;
- ✓ Kiya ko'yilgan tahta ustidan yurib o'ta olish;
- ✓ Bir oyokda kaldirgoch bo'lib tura olish;

✓ Oyok uchlari bilan buyumlarni kisib ko'tarish, pastga surish va bir joydan ikkinchi joyga ko'chira olish;

✓ Joyidan turib 15-20 marta sakray olish, 70-80 sm o'zunlikka sakray olish, 30 sm balandlikdagi to'sikdan sakrab o'tish;

✓ To'htamasdan 2-3 minut davomida yugura olish; 100 metr masofani to'htamasdan yugurib o'tish;

✓ 10 metr masofani emaklab o'tish;

✓ Safda to'g'ri turish va safni o'zunasiga yurish;

✓ Saflanish va kayta saflanishni bilish;

✓ Musika ohangiga mos holda harakat kila bilish;

✓ Koptokni irg'itish va ilib olish;

✓ Ilon izi shaklida yurish;

✓ To'p-to'p bo'lib aylana bo'ylab yura olish;

### **5.5. Bolalarni maktabga tayyorlashda kun tartibining o'rni**

Kun tartibidagi aksariyat xollarda genetik va chiniktiruvchi muolajalarni bajarish orkali bolaning bilim doirasi kengayadi. Akliy faolligi ortadi. U jasurlik, xallolik, batartiblik, ka'tiylik, mustakillik va shunga o'xshash ijobiy xulk normalari va koidalarini xam egallab shakllanadi. Jismoniy tarbiya aksariyat xollarda butun guruh bilan bajariladi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida harakatli o'yinlarda bolalarda jamoatchilik uyushkoklik, intizomlilik kabi xislatlar shakllanadi.

O'kish uchun bolalar anchagina jismoniy va akliy kuch sarflashlari kerak. Shuning uchun ota-ona bola maktabga borguniga kadar uning to'g'ri jismoniy rivojlanishi va sog'lom bo'lib o'sishi g'amho'rlik kilishi juda muhimdir.

Odatda, sog'lom bola kasalmand va zaif bolaga nisbatan maktab tartibiga va butun dars davomida o'zida jush urib turgan g'ayratlarini tiyib jim o'tirishga tezrok ko'nikadi. Har bir bola anik kun tartibiga ongli ravishda rioya kilishiga bog'lik. Bolani maktab rejimiga tayyorlashda, uning sog'ligini mustahkamlashda ertalab ma'lum vaktida o'rindan turish, ovkatlanish va uykuga yotishga anik rioya kilinishi kerak.

Har bir oila mehnat faoliyatining harakteri, maishiy sharoiti, bolalarning soni va shu kabilarga o'z yashash tartibini o'rnatadi. Birok bir narsani, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolaning nonushtasi va tushligi o'rtasidagi oralik 4 soatdan oshmasligini, tushlik va kechki ovkat o'rtasidagi oralik – bir oz kattarok (6-7 soat), buning orasida yengil ovkatlanish kechki choy bo'lishi muhimdir.

Bolaning bir sutkadagi uyquasi tahminan 11 soatni tashkil kilishi kerak.

Bola tushlikdan sung 1-1,5 soat dam olishi, kechkurun u doimo bir vaktida, ya'ni 9 dan kechikmay uhlashi muhimdir.

Bolalarni to'g'ri dam olishlari uchun kuyidagi koidalarga rioya qilish zarurdir:

✓ bola uhlaydigan honani yahshilab shamollating;

✓ bolani uhlashga yotishdan oldin tishini tozalashga, yuz-ko'li, buyni, oyog'ini yuvishga odatlantiring;

✓ bolaga o'rinda nonushta kilishga aslo yul kuymaslik.

Bolaning normal rivojlanishi uchun u toza havoda ko'p harakat kilishi kerak. Tengdoshlari bilan chopsin, sakrasin, narsalarga tirmashib chiksin. Bola ochik havoda

kish oylarida 4 soatdan kam bo'lmasin, yozda esa deyarli butun kunini ochik havoda o'tkazishi kerak.

Bolaga uzdu-kun tinim bilmay lakillab yurishga yul kuyib bulmaydi, bunday ortikcha o'yinkaroklikdan bola maktabning talabchan intizomiga ko'nikishi kiyin bo'ladi. Harakatli o'yinlarning tinch mashg'ulotlar bilan almashinib turishini ko'zatib borish zarur.

Bolaning kundalik tartibga amal kilishi uchun asosan, kat'iy nazorat lozim. Bola kundalik tartibni bajarish majburiylikiga va hech kanday gap, iltimoslar, ma'lum vaktida ovkatlanmaslik hamda o'ynamaslikka sabab bo'la olmasligiga ko'nikishi kerak. Shu bilan birga rejimning zarurligi va uning foydasini doimo tushuntirib borish lozim.

Kun tartibining ahamiyati bola faoliyatining har hil turlarining almashinib turishini ta'minlashdir, bu esa yosh, o'suvchi organizmni charchashdan saklaydi, bolaning har tomonlama kamol topishiga imkon beradi. Masalan, bola rasm solishga kizikib ketib, stoldan 40 minut davomida turmadi, lekin u faol harakat kilishi, ya'ni o'ynashi, chopishi kerak. Shuning uchun u o'ynab bo'lganidan keyingina unga tinch o'yin yoki mashg'ulotni tavsiya kilish mumkin. Agarda ish shu yusinda ketsa, bola shunday tartibga rioya kilsa, u kay darajada bo'lmasin asta-sekin o'z faoliyatini boshkarishga odatlanadi, bu uni kundalik va maktab rejimining asosiy koidalariga osongina ko'nikishida katta ahamiyatga egadir.

#### Olti yoshli bolaning kun tartibi

№	Kun tartibi	Vakti
1.	O'rindan turish, badan tarbiya mashklarini kilish, yuvinish, o'rinni yig'ishtirish.	8.00-8.45
2.	Nonushta	8.45-9.15
3.	Sayr	9.15-10.00
4.	Mashg'ulot	10.00-11.00
5.	Ochik havoda o'ynash, sayr kilish, ko'ngil ochish.	11.00-12.45
6.	Tushlik ovkat	12.45-13.15
7.	Kunduzgi uyku	13.15-15.00
8.	O'zi yoktirgan ish bilan shug'ullanish uchun bo'sh vakt	15.00-16.00
9.	Kechki choy	16.00-16.15
10.	Ochik havoda sayr kilish va o'ynash	16.15-18.00
11.	Kechki ovkat	18.00-18.30
12.	Tinch uyinlar, kattalar topshirig'iga ko'ra ko'lidan keladigan ishlarni bajarish	18.30-20.15
13.	Uyquga tayyorlanish, gigienik tadbirlar (tishni tozalash, yuvinish)	20.15-20.30
14.	Tungu uyqu	20.30

### Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Bolalarning maktab ta'limiga tayyorlashda ijtimoiy - psixologik tayyorgarlik deganda nimani tushunasiz?
2. Bog'cha yoshi davrining psixologik xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Ijtimoiy - psixologik tayyorgarlik qanday amalga ishiriladi?
4. Bolalarning maktabda o'kishiga jismoniy tayyorligi nimalardan iborat?
5. Bolalarni maktabga tayyorlashda kun tartibi qanday bo'lishi kerak?
6. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari qaysilar?
7. Jismoniy tarbiyaning birinchi darajaliy vazifalariga nimalar kiradi?



## 6-§. BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLIGINI TASHXISLASH USULLARI

**Tayanch tushunchalar:** *tashxis, fikrlash, mantig', ziqlik, ezilganlik, tashvishlilik, tekshiruv.*

Bolaning maktabda ta'lim olishga tayyorligini tashxislash bu tekshiruv juda zarur. U oila uchun bolaning qaysi jixatlariga tuzatish (agar u zarur bo'lsa) kiritishda, olti yoshlining muvaffaqiyatlari va kamchiliklariga kanday yondashishda, shu maqsadda u tarbiyachilarga, qolaversa I-sinf o'qituvchilari uchun ham kerak. Bolani o'qitish uchun uni xar tomonlama bilish kerak.

Afsuski bugungi kunda tashxis tizimining takomillashmaganligi, o'zini oqlamagan turli xil shakllarni kupligi ta'lim muassasalarining xamda ota-onalarning bolalarni maktabga tayyorlash borasida faoliyatini kiyinlashtirmokda. Masalan, ayrim maktablarda bolalarni birinchi sinfga olishda bolaning maktabga tayyorgarligini belgilovchi asosiy kursatgich sifatida tez o'qish ko'nikmasi (bir minutda 50-70 va undan xam oshik so'z) ilgari surilmokda. Vaxolanki, bu ko'nikma maktabgacha ta'lim davlat dasturiga kiritilmagan.

Agar bola tez o'qishga urgangan bulsa yomon emas, biroq bu maktabga borishdagi shartli talab sifatida kabul kilinmasligi kerak.

Tashxis o'tkazish, bolaning rivojlanganligi va maktabda ta'lim lishga tayyorgarligi darajasini aniklash maksadida turli usullarning bir necha variantlari berilmokda. Biroq bu xar bir bolaga tashxis qo'yishda maskur usublarning barchasini qo'llash zarur, degani emas.

Bolani tashxisdan o'tkazishni majburiylikka asoslanmagan, ishonchli suxbat yoki o'yin tartibida olib borgan ma'qul. Toki bola o'zini tekshirilayotganligini sezmasin. Bolani berilgan savollarga javob bervyotganda shoshirmaslik, uning kizikishini so'ndirmaslik uchun suxbat va tavsia etilayotgan uyinlardan 2-3 tasini o'tkazgan ma'qul.